

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SANAT VA MADANIYAT INSTITUTI
“KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO SANATI” FAKULTETI
“SANATSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI**

**“Qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari
(Respublika qo‘g‘irchoq teatri misolida) 2010-2017-yillar”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5150200-San‘atshunoslik (teatrshunoslik) talim yo‘nalishi 4 kurs talabasi

To‘ychiyeva Nodira Baxtiyor qizi

Kurs rahbari:
Sanatshunoslik fanlari
doktori
S.M.Qodirova

Ilmiy rahbar:
Sanatshunoslik fanlari
doktori
S.M.Qodirova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

_____ sonli bayonnomasi «__» _____ 2018 yil

Toshkent – 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3-7
I BOB. Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning tutgan o‘rni	
1.1. O‘zbek an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyor mahorati.....	8-15
1.2. Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari.....	16-30
II BOB. Respublika qo‘g‘irchoq teatrida rejissor va aktyor hamkorligi	
2.1. Rejissor talqini va aktyor individualligi.....	31-41
2.2. Qo‘g‘irchoq teatri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aktyorning obrazga yondashuvi.....	42-49
III BOB. Respublika qo‘g‘irchoq teatrida repertuar masalasi	
3.1. Qo‘g‘irchoq teatri uchun maxsus yozilgan dramatik asarlarda talqin masalasi.....	50-58
3.2. Inssenirovka qilingan spektakllarda aktyorlik namunalari	59-67
Xulosa.....	68-72
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	73-77
Ilova.....	78-80

Kirish

Bolalar qadrlanadigan millat uchun ularning tarbiyasi ham o'ta muhim tushunchadir. Bolalarni keng dunyoqarash va boy tasavvurga ega bo'lishida esa san'at o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrlari orqali uyg'onadigan taassurotlarni hech bir vosita bilan tenglab bo'lmaydi. Boisi, hayratlanish inson o'zligida burilish yasay oladigan kuchli turtki, o'z-o'zidan bolalar harakatlanayotgan, hattoki nozik xatti-harakatlarni bajarayotgan qo'g'irchoqlarni ko'rib doim hayratlanadilar. Bu hayratlanish orqali ularda yangi fikr tug'iladi. Ulardagi qarash shakllanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, sahna san'atining insonlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etishi, ayni vaqtda qudratli tarbiya vositasi ham bo'lishi bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir¹. O'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga vatanparvarlik, milliy g'urur, insoniylik, mehr-oqibat, odob-axloq g'oyalarini singdirishda teatr boshqa san'at turlaridan ta'sirchanligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

Mavzuning dolzarbligi. Teatrlarning umumiy xususiyatlari, ulardagi badiiy repertuarni shakllantirish masalasi, teatr ijodkorlari faoliyatini muntazam tahlil qilib borish yuzasidan hamma davr teatrshunos nuqtai nazariga muhtoj. Odatda, dramatik teatrlar, ulardagi aktyor va rejissorlar faoliyati doim e'tirof etiladi. Qo'g'irchoq teatrlaridagi o'ziga xos mahorat maktablari, aktyorlarning ijodiy xususiyatlari esa hamisha ham qo'l uriladigan mavzu emas. Tadqiqotda qo'g'irchoq teatri, uning o'ziga xos jihatlari, qo'g'irchoq teatri aktyorlari zimmasidagi vazifalar va bugungi kun aktyorlik sohasidagi o'ziga xosliklar haqida so'z boradi. Bu mazkur malakaviy ishning aynan dolzarbligini ifodalaydi. Bu mavzudagi malakaviy ish nafaqat teatr ijodkorlari uchun, balki aktyorlik sohasida tahsil olayotgan yoshlar uchun ham o'ziga xos qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

¹Istiqlol va Milliy teatr. -T: Yangi asr avlodi. 2002. 15-b.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Mazkur malakaviy ishning **maqsadi** Respublika qo'g'irchoq teatri faoliyati, repertuari va ijodiy jamoasiga etibor qaratgan holda, qo'g'irchoq teatri san'atining o'ziga xosligini tadqiq etish, qo'g'irchoq teatri aktyorlarining obraz yaratish xususiyatlarini hamda aktyorlikning o'ziga xos jihatlarini o'rganish va tavsiflashdir.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

– qo'g'irchoq teatrida aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

– an'anaviy qo'g'irchoq teatrlarida aktyor mahorati yuzasidan manbalarni o'rganish;

– teatrlardagi rejissor talqini va aktyorning o'z roliga individual yondashishini tahlil etish;

– qo'g'irchoq teatri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aktyorning obrazga yondashuvini tadqiq etish;

– qo'g'irchoq teatri uchun maxsus yozilgan dramatik asarlarda talqin masalasi yuzasidan munosabat bildirish;

– insenirovka qilingan spektakllarda aktyorlik namunalarini baholash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Uzoq tarixga ega, bevosita madaniyatimizni o'zida aks ettiruvchi qo'g'irchoq teatrlari faoliyatini o'rganish, ularda ijod qilayotgan aktyorlarning mahorati, sohaviy xususiyatlarini tadqiq etish muhim masalalar hisoblansa-da, bu yo'nalishda doimiy ravishda manbalarga ehtiyoj seziladi. Aksariyat manbalarda asosan, qo'g'irchoq teatri tarixi, uning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beriladi. Shu asosda, mazkur tadqiqot ishi yuzasidan bir qancha manbalar bilan tanishib chiqildi. Xususan, Respublika qo'g'irchoq teatri faoliyatiga oid materiallar respublika miqyosidagi matbuot sahifalarida, o'zbek qo'g'irchoq teatrining tarixi va zamonaviy jarayonlariga oid ilmiy, ilmiy-ommabop qo'llanma va darsliklarda, ayrim teatr ijodkorlariga bag'ishlangan risola va maqolalarda bayon etilgan. Tadqiqot ishi mavzusini yoritishda teatrshunos olimlar,

dramaturg va soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan izlanishlardan, xususan, qo'g'irchoq teatrlarining tarixiy asoslari, rivojlanishi va xususiyatlari haqida asosiy manbalar sifatida M.Qodirovning "O'zbek xalq tomosha san'ati" (Toshkent O'qituvchi, 1981), "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar" (Toshkent Fan, 1993), "An'anaviy teatr dramaturgiyasi" (Toshkent Yangi asr avlodi, 2006), M.Qodirov, S.Qodirova bilan hammualliflikdagi "Qo'g'irchoq teatri tarixi" (Toshkent Talqin, 2006) kabi kitoblarini e'tirof etish o'rinli. Qo'g'irchoq teatri aktyorlarining obraz yaratishi yuzasidan asosiy ko'rsatmalarni beruvchi manbalari M.Ashurovaning "Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi" (Toshkent Kuro Print, 2007), T.I.Yuldashev, H.I.Ikromov, I.A.Muxtarov va M.S.Muxtarova hammuallifligidagi "Teatr va yosh avlod" to'plami (Toshkent 2012), I.Turdiyevaning "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" o'quv-uslubiy qo'llanmasi (Toshkent O'zDSMI, 2015) ni misol qilib keltirish mumkin. Shu o'rinda "Teatr", "San'at" kabi jurnallarda va "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" kabi gazetalarda chop etilgan maqolalardan ham unumli foydalanildi. Shuningdek, "Istiqlol va milliy teatr" (Toshkent Yangi asr avlodi, 2002) to'plami, T.Bayandiyevning "San'at masalalari teatrshunos nigohida" (Toshkent Fan va texnologiyalar, 2009), T.Bayandiyev, H.Ikromov, M.Ahmadjonovanning "O'zbek teatrlarida milliy – g'oya talqini" (Toshkent Fan va texnologiyalar, 2009), T.Tursunovning "Sahna va zamon" (Toshkent Yangi asr avlodi, 2007) va "XX asr o'zbek teatri tarixi" (Toshkent Fan va texnologiyalar, 2009) kabi ilmiy risola, to'plam va darsliklardan hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Teatr boshqarmasi va Respublika qo'g'irchoq teatriga qarashli arxiv materiallaridan, spektakllar annotatsiyalaridan, arxiv bayonnomalari va badiiy kengash xulosalaridan keng foydalanildi va amaliy taassurot hosil qilindi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlarining so'nggi yillardagi faoliyatini umumiy tarzda qamrab olgan malakaviy ish mavjud emas. Dahldor ayrim malakaviy ishlar ham tanqidiy xarakterga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mustaqillik yillarida sahnalashtirilgan qo'g'irchoq teatri spektakllari haqidagi teatrshunos maqolalari asosan davriy nashrlar, OAV orqali e'lon qilib borilgan. Teatrshunoslik mutaxassisligi nuqtai nazaridan yozilgan barcha maqola va taqrizlarda dramaturgiya, rejissorlik, aktyorlik mahorati, rassom va bastakor ishlari umumiy tahlil etiladi. Bu malakaviy ishda esa aynan qo'g'irchoq teatri aktyorlarining faoliyatiga chuqurroq yondashiladi va Respublika qo'g'irchoq teatrining 2010-2017 yillardagi repertuari asosida tahlil qilinadi. Bu tahliliy masalalarga qo'shimcha ravishda, teatrning umumiy faoliyati, xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari, aktyor va rejissor o'rtasidagi ijodiy hamkorlik va teatr repertuarini shakllantirish masalasi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi, tavsiflanadi va tadqiq qilinadi. Bu yondashuv orqali mazkur tadqiqot teatrlar faoliyatiga bag'ishlangan bir-biriga o'xshash shakl va uslublardagi ishlardan biroz farq qiladi. Bu jihat malakaviy ishning ilmiy yangiligini ifodalaydi.

Malakaviy ishda teatrning bugungi kundagi faoliyati va tahliliy materiallarga qo'shimcha ravishda, endilikda qo'g'irchoq teatrlarining zimmasida turgan vazifalariga ham e'tibor qaratiladi va takliflar bildiriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti Respublika qo'g'irchoq teatri bo'lib, uning predmeti shu teatrdagi spektakllar, aktyorlar, rejissorlar va ijodiy jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida qo'g'irchoq teatri aktyorlari faoliyati, obrazga yondashishdagi o'ziga xos intilishlari tahlil qilinadi. Tabiiy ravishda, tahlil etilayotgan asosiy masala orqali Respublika qo'g'irchoq teatri xususiyatlari, repertuari va ijodiy jamoasi xususida ham so'z boradi. Sahnalashtirilgan spektakllarning badiiy ahamiyati muhokama qilinadi. Tomoshalarga tarbiyaviy va g'oyaviy jihatdan qay yo'sinda yondashilganligiga ahamiyat qaratiladi.

Mazkur tadqiqot ishidan kelib chiqqan ilmiy-nazariy xulosa va fikrlar Respublikamizdagi san'at yo'nalishidagi oliy va o'rta-maxsus o'quv yurti talabalari

uchun qo‘g‘irchoq teatrlarida aktyorlik mahorati mavzusi yuzasidan qo‘shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi Kirish, 3 bob, Xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

I bob “Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning tutgan o‘rni” deb nomlanadi. Bu bobda “O‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyor mahorati”, “Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari” kabi bo‘limlar orqali aktyorlik san’ati tahlil etiladi va aktyorlarning ijro imkoniyatlari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

II bob “Respublika qo‘g‘irchoq teatrida rejissor va aktyor hamkorligi” deb nomlangan bo‘lib, unda “Rejissor talqini va aktyor individualligi”, “Qo‘g‘irchoq teatri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aktyorning obrazga yondashuvi” kabi ruknlar asnosida rejissorlik va aktyorlik san’atining hamohangligi va hamkorligiga urg‘u beriladi.

III bob “Respublika qo‘g‘irchoq teatrida repertuar masalasi” deb nomlanadi. “Qo‘g‘irchoq teatri uchun maxsus yozilgan dramatik asarlarda talqin masalasi”, “Inssenirovka qilingan spektakllarda aktyorlik namunalari” bo‘limlarida repertuar masalalari tadqiq etiladi.

Ishning **xulosa** qismida yuqoridagi uch bobdan kelib chiqadigan fikrlar umumlashtiriladi, qo‘g‘irchoq teatrlarining ijodiy xususiyatlari borasida fikr-mulohazalar, bugungi kunda teatrdagi va aktyorlik sohasidagi muammo va kamchiliklar bayoni, ularni hal etish masalalari va takliflar bildiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxatida mavzuga oid manbalar taqdim etiladi.

Shu bilan birga sahnalashtirilgan spektakllar ro‘yxati hamda fotolavhalar **ilova** qilinadi.

I BOB. Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning tutgan o‘rni

I.1. O‘zbek an‘naviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyor mahorati

Teatr san‘ati ma‘naviyatning eng yorqin, ta‘sirchan ko‘rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o‘rtasida samimiy bog‘lanish, muloqot hosil bo‘lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma‘nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko‘nglini ko‘taradi.² Darhaqiqat, teatr ma‘lum millatning o‘zligini, orzu-intilishlarini, tarixini, kelajagini, urf-odatlarini, qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etuvchi beqiyos san‘atdir. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g‘urur, vatanparvarlik, e‘tiqod, millatlararo do‘stlik va totuvlik, insoniylik, mehr-sahovat, odob-axloq masalalarini yoritishda teatr boshqa barcha san‘at turlardan ta‘sirliroq, kuchliroq va jozibaliroq imkoniyatga ega. Shunday ekan, har qaysi xalq teatrni milliy kolorit asosida shakllantirishga intiladi. Shu orqali, xalqning qalbi va ongiga ta‘sir o‘tkazishni istaydi. Teatr tarixiy an‘analar va yuksak insoniy fazilatlar bilan bevosita bog‘langan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san‘ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadur», deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir. Bizning milliy teatr san‘atimiz tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib bog‘lanadi.”³ Mana shu o‘yinlardan professional qo‘g‘irchoq teatriga qadar bosib o‘tilgan yo‘l milliy ruhiyatimizning rangin va zarrin qiyofalari bilan bezatilgan. Aynan qo‘g‘irchoq teatrlarida xalqona xususiyatlardan va milliy nuqtai nazardagi yondashuvlardan keng foydalanish, doim teatrning qadrini va qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Shu asosda, qo‘g‘irchoq teatrlarida mana shu badiiylikni tomoshabinga yetkazuvchi aktyorlar jamoasining faoliyatini tavsiflash,

² Istiqlol va milliy teatr. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 22-b.

³ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. 144-b.

munosabat bildirish, tahlil qilish keyingi avlod teatrlari va teatr ijodkorlari uchun o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi.

Qo'g'irchoq teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr sa'atining bu janr ildizlari qadimda folkloriga, an'anaviy xalq teatri san'ati oqimlariga borib taqalgan. Umuman olganda, ibrat bo'la olish, namuna ko'rsatish yo'li bilan kattalar va bolalarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda san'atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi IV-V asrlardayoq ajdodlarimiz anglab yetgan ko'rinadi. Qo'g'irchoqlar orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ta'sir o'tkazib kelinganligi Gerodot, Mark Avreliy, Aristotel kabi qadimgi tarixchi va allomalarning asarlarida keltirilgan. Dunyoning barcha qit'alarida qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos an'analari mavjud bo'lib, ular bir necha asrlik tarixga ega. Ulardan, marionetka (iplar yordamida boshqariladigan qo'g'irchoq), petrushka (qo'lqop sifatida qo'lga kiyiladigan qo'g'irchoq), mexanik tarzda boshqariladigan qo'g'irchoqlar, planshetli (ochiq tarzda o'ynatiladigan), soyasi tushiriladigan qo'g'irchoqlar dunyoning barcha rivojlangan qo'g'irchoq teatrlarida qo'llanila boshlangan.

“Qo'g'irchoq teatri tarixi” qo'llanmasida keltirilishicha: “O'zbek qo'g'irchoq teatrining vujudga kelishini olib qaraganimizda, bunda ikki manba muhim va hal qiluvchi rol bajarganini ko'ramiz. Birinchi manba O'zbekiston hududida yashagan qadimgi, animistik e'tiqodga tayanuvchi xalqlarning marhumni eslash marosimidir, deb hisoblanadi. Mazkur marosimga ko'ra, o'lgan kishining eng yaqin odami uning niqobini yasab kiyadi va marhum harakatlari, nutqi, muomalalarini tiklashga urinadi. Niqob ba'zan boshga kiyilmasdan, qo'lda ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda “ijrochi” ham marhum, ham o'z “rolini” bajargan va o'ziga xos dialog hosil qilgan. Ushbu marosim o'zbek qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlagan.”⁴

⁴ Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin 2006. 17-b.

Aynan, jonsiz tanani jonlantirishga urinish asosida keyinchalik, jonsiz qo'g'irchoqqa jon ato etilganini (harakatlantirish, so'zlatish) payqash qiyin emas. Ya'ni, mana shu diniy qadriyat orqali obraz tushunchasi vujudga kelgan.

Uzoq tarixga va boy qadimiy qiyofalarga ega an'anaviy qo'g'irchoq teatri o'zining maftunkorligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. M.Qodirov aytgandek, "Osiyo qo'g'irchoq teatri bu shunchaki ermak, o'yin emas, balki bir qit'a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir"⁵ Aynan mana shu uzoq tarixga ega san'at turi va uning dastlabki qiyofalari bevosita an'anaviy qo'g'irchoq teatri san'ati hisoblanadi.

An'anaviy teatr xalq orasida juda mashhur bo'lib, asosi og'zaki dramaturgiya hisoblangan. Zero, draamaturgiya teatr bilan birga tug'iladi va birga yashaydi. An'anaviy teatr bugungi zamonaviy teatrdan ayrim jihatlari bilan farq qilgan. Masalan, zamonaviy teatrdan asos dramaturgdan boshlanib, asosiy mas'uliyat rejissor zimmasiga tushadi. Aktyorlar butun ijodiy guruhning mehnatini yuzaga chiqaruvchi jamoa a'zosi. An'anaviy teatrdan esa asosiy mas'uliyat aktyor zimmasida bo'lgan. Shu sababdan aktyorlarga qo'yilgan talab va ularning imkoniyatlari ham yuqori darajada bo'lgan.

An'anaviy teatr – ijrochilik san'ati. Bu yerda hal etuvchi – ijrochi aktyor, uning e'tiqodi, qobiliyati, malakasi, mahoratidir. Zotan, xalq aktyori tomoshabinlar davrasidan hosil bo'lgan o'ziga xos "sahna"da, maxsus ayvonlarda, ko'shklarda tomosha ko'rsatgan. Rasmana dekoratsiya yo'q, voqea o'rni va payti esa shartli. Bunday sharoitda aktyor faqat o'ziga, o'z san'atiga ishonib ish ko'radi. U mustahkam an'anaviy fabula, voqealar, obrazlar silsilasi, barqaror savol-javoblarga tayangan holda so'z va harakatlar to'qiydi, ya'ni badihagoylik (improvizatsiya) qiladi.⁶

⁵ Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – T.: Fan, 1993. 163-b.

⁶ Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 7-b.

Aynan mana shu xususiyatlarni qamrab olgan an'anaviy qo'g'irchoq teatri uzoq yillar davomida xalqimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida baholangan. Ana shu vaqtlarda, O'rta Osiyoda an'anaviy qo'g'irchoq teatrining eng ko'p tarqalgan ikki turi mavjud bo'lgan, bular "Chodir jamol" va "Chodir xayol"dir.

Bu yerdagi "jamol" so'zi bir tomonlama tomoshaning yorug'likda, kunduzi ko'rsatilishiga, ikkinchidan, tomoshada kundalik hayotdan olingan real, tanish voqealar tasvirlanishiga ishora qiladi. "Chodir" so'zi esa ham sahna, ham teatr ma'nosini beradi. Demak, "Chodir jamol" – bu kishilarning kundalik hayotidan olingan voqealarni qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar yordamida kunduzi aks ettiruvchi o'ziga xos teatrdir.⁷

"Chodir xayol" teatridagi qo'g'irchoqlar esa qo'lqopli qo'g'irchoqlardan farq qiladi. Ular tuzilishi, shakli va yasalishi, ijro va mavzu xususiyatlari nuqtai nazaridan birmuncha murakkabdir. Bunda aktyor maxsus o'rnatilgan chodir va pardalar ortidan turib ipli qo'g'irchoqlarni o'ynatadilar. Bu bir qarashda tomoshabindan berkinib rol ijro etishga o'xshaydi.

Bu teatr tomoshalari odatda kechalari ko'rsatilgani, oddiy nur-shu'la va shovqindan foydalanilgani tufayli qora pardalar ichidagi qo'g'irchoqlarning o'zi harakat qilayotganday tabiiy va ajib manzara hosil bo'lgan. Har mashhur qo'g'irchoqboz bir vaqtning o'zida iplar yordamida 8-10 qo'g'irchoqni harakatga keltira olgan. "Chodir jamol" teatrining bir tomoshasida ko'pi bilan o'n qo'g'irchoq ishtirok etgan bo'lsa, "Chodir xayol"da bir tomoshada 50 dan ortiq qo'g'irchoq o'ynagan.⁸

Bugungi kunda ham bu yo'nalishlar mohiyatan saqlanib qolgan bo'lib, uning vositasida turli rang-barang tomoshalar dunyoga kelmoqda. An'anaviy qo'g'irchoq teatr haqida gap ketganda, dastavval kuchli mahorat egalari hisoblangan aktyorlar jamoasi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bugungi kun aktyorlaridan farqli ravishda

⁷ Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006. 32-33-b.

⁸ Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006. 64-65-b.

ularning an'anaviy teatrdagi roli behad yuqori bo'lgan. Olim ta'biri bilan aytganda, aktyor – an'anaviy teatr shohi, spektakllarni harakatlantiruvchi yetakchi kuch.⁹ Umuman olganda, an'anaviy teatr aktyori mahoratini baholash avvalida an'anaviy qog'irchoq teatriga xos asosiy xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim:

- tomoshalarining og'zaki dramaturgiyaga asoslanganligi;
- tomoshaning asosan xalq orasida, ochiq maydonlarda qo'yilishi;
- tomoshani tashkil etish asosan ikki ijodkor – aktyor va korfarmonga bog'liqligi;
- tomoshada aktyorlarning faoliyati kuchli hajv va favqulodda badihago'ylikka asoslanganligi;
- aktyorlarning serqirraligi;
- tomoshalarining asosan kattalar uchun mo'ljallanganligi;
- tomoshalar umumiy sintez xususiyatlarini qamrab olganligi;
- tomoshada asosan ijtimoiy mavzularning tanlanishi;
- tanlangan ijtimoiy mavzularning masxara va mubolag'a yo'li bilan ko'rsatilganligi va hokazo.

An'anaviy teatr haqida gap ketganda, biz umuman eng ko'p tarqalgan masxarabozlik, qiziqchilik hamda qog'irchoqbozlikni tushunamiz va ularni ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Bu bir qarashda alohida yo'nalishdagi tomosha san'ati turlari hisoblansa-da, yahlit an'anaviy teatr uchun xizmat qiladi. Shu sababdan, ulardagi badiiy asos va badiiy mohiyat uyg'un, aktyorlar bir vaqtning o'zida qog'irchoq ham o'ynatolgan, qiziqchilikdan ham boxabar bo'lishgan. Shunday ekan, an'anaviy teatrga xos ayrim xususiyatlar barcha turdagi tomosha san'atiga taaluqlidir. Lekin ular bir-biriga yaqin bo'lgan alohida-alohida teatr san'ati turidir.

Og'zaki dramaturgiya – an'anaviy teatr asosi. Aktyorlar jamoasi uchun ham og'zaki dramaturgiya asosida tomosha ko'rsatish qulay edi. Aslini olganda, xalq orasida mashhur bo'lgan, xalq to'qigan voqealar va shu davrda sodir bo'layotgan

⁹ Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: O'qituvchi, 1981. 49-b.

hodisalar tomoshalarning asosiy sujetini tashkil qilgan. Demak, o'g'zaki dramaturgiya bu tasodifiy holat emas. Bu asarlarning ham asosi bo'lgan va aktyorlar tomoshaning asosiy mazmunini buzmaganda holda improvizatsiya orqali rol ijro etganlar. Tomoshabinlar katta zavq bilan tomoshalarni kuzatgan. Ular uchun aktyorlar ijrosi va jonli badihalar qiziqarli tuyulgan.

O'zbek an'anaviy teatri, M.Qodirov aytganidek, malakali ijrochilar – qissago'y, voiz, maddoh, masxara, qiziqchi, qo'g'irchoqchilarning og'zaki dramaturgiya negizida yaratiladigan san'atidir.¹⁰

Aytilganidek, tomoshalar asosan xalq orasida, ochiq maydonlarda qo'yilgan, sababi tomoshabin uchun joy, dekoratsiya muhim emas edi. Qaysidir ma'noda, bunga imkon ham bo'lmagan. Shu sababdan, ko'p jihatdan an'anaviy teatrdagi shartlilik muhim rol o'ynagan. Demak, an'anaviy teatrdagi hozirgi tushunchadagi sahna, tomoshabin, bilan teatrga keskin ikkiga bo'lib turadigan ayirma bo'lmagan. Xalq aktyorlarining tort tomondan qurilib turgan tomoshabinlar davrasida o'ynashi an'anaviy teatr spetsifikasini belgilagan, shartlilik ham ko'p jihatdan shunga bog'liq.¹¹

An'anaviy teatrdagi asosiy kuch aktyor ekanligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zidan tomoshabin uchun qaysi aktyorning rol o'ynashi, uning ovozi, mimikasi, ko'rinishi, his-tuyg'ulari, harakatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Xalq vakillari ham aktyorlarning mahoratiga qarab baho bera olgan va maromiga yetgan ijrodan mislsiz zavq olishgan. Keyingi navbatda, tomoshaning asosida korfarmonlarning ham o'rni bo'lgan. Favqulodda korfarmonlarning o'zlari ham yuksak mahoratga ega bo'lgan, iste'dodli aktyorlar hisoblangan. Boisi, uzoq yillar davomida to'plangan ijodiy tajriba orqaligina rejissorlik qilish mumkin edi.

Korfarmon ko'rsatmalari asosan aktyorga mavzuni tanlashda va mahoratini charxlab borishda asqotgan. Baribir tomoshadagi asosiy mas'uliyat aktyor zimmasida

¹⁰ Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 7-b.

¹¹ Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: O'qituvchi, 1981. 44-b.

qolavergan. Shu sababdan aktyorlardan ilk navbatda kuchli hajv ustasi va badihago'ylik talab etilgan. Tomoshaviylik – aynan an'anaviy teatrning bosh mezon. Shu sababdan, tomoshalarni hajv va kulgusiz tasavvur etib bo'lmasdi. Hajv asosan, atrofdagi qaysidir voqea yoki shaxsga nisbatan kulgu, masxara, tanqid shaklida bo'lgan. Badihago'ylik esa, vaziyatdan kuchli did, so'z va dadillik orqali olib chiqib keta olish mahoratidir. Badihago'ylik mohiyatan vaziyatdan faqat so'zamollik bilan chiqib keta olish imkoniyati bilan o'lchanmagan. Aktyorlar badihago'ylik uchun ham alohida tayyorgarlik ko'rishgan. O'z dunyoqarashlari va so'z boyligini muntazam shakllantirib borishgan. Demak, o'z o'rnida aktyorlardan o'ziga xos darajada serqirralik talab etilgan. Tomoshaning asosida mahoratning asosiy rol o'ynashi bevosita aktyordan nutq va ovoz imkoniyatlarini yuqori bo'lishini, zehn va ziyraklik, tezkorlik va aniqlik, sezgirlik va mulohazakorlik jihatlarini yuksak darajada shakllangan bo'lishini taqazo etgan.

O'z-o'zidan ma'naviy ozuqa va madaniy hordiq chiqarish davr va daraja tanlamaydi. Qizig'i, ana shu vaqtlarda tomoshalar asosan kattalar uchun mo'ljallangan va aktyorlarning yuksak mahorat bilan ijro etilgan tomoshalari orqali olomon ruhiyati ko'tarilgan, ongi shakllangan. Shu asosda, mavzular ham asosan kattalarga mos, ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan. Aynan jamiyatdagi adolatsizliklar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tabaqalashuv, kundalik muammolar va xalq xohish-istaklari haqidagi tomoshalar albatta, hech kimni befarq qoldirmagan.

Tanlangan ijtimoiy mavzular esa aynan masxara va mubolag'a yo'li bilan ko'rsatilgan. Bu sahnaning shartliligi, tomoshaviylik darajasini ko'tarish, ta'sir o'tkazish va ochiqchasiga e'tiroz yuzaga keltirmaslik taqazosidagi an'ana edi. Shuningdek, tomoshaviylik ta'minlanishi uchun aktyorlar san'atlar sintezidan ham foydalanishgan. Tomoshalarda musiqa, raqs va boshqa ijro turlari elementlarini ham uchratish mumkin edi.

Nihoyat an'anaviy teatr tarkibidagi qo'g'irchoq teatrlarida muhim rol o'ynaydigan navbatdagi masala personajlar – aktyorlar jonlantiradigan personajlar edi. An'anaviy qo'g'irchoq teatri aktyorlari mahoratini baholash o'z-o'zidan qo'g'irchoq teatrining tarixiy yo'nalishlari "Chodir jamol" va "Chodir xayol"ga borib taqaladi. Masalan, "Chodir jamol" qo'g'irchoqlarini qo'lga kiyib olgan aktyor odatda qizg'ish va yorqin ranglarda bo'ladigan chodir ichiga turib, ba'zida cho'kkalab oladi va uzoq vaqt davomida bir dona aktyor bir nechta personajlarni jonlantiradi. U tomosha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'g'irchoqlarni alishtirib boradi. Bu aktyordan ham jismoniy, ham aqliy, ham ijodiy mahoratni talab etishiga shubha yo'q. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, "Chodir jamol" teatri ixtiyorida qo'g'irchoqlar ko'p bo'lgan. Masalan, Komarov kolleksiyasidagi qo'g'irchoq – personajlar: Polvon Kachal, Bichaxon oyim (Puchiixon, Oyimxon), Boy hindi sudxo'r, Ko'knori, Saidboyning qizi, To'rageldining qizi, Beknazar karnaychi va uning xotini Bibixon, Ernazar maymunchi maymuni bilan, To'tixon (Nazokatxon), Qumrixon (Saodatxon), Yetim qiz, Abram mujik xotini bilan, Lo'li qiz, Borux jugut, Shura qiz.¹²

Shuningdek, bu teatrning tarkibida hajviy, tipik qahramonlar, san'atkorlar va afsonaviy hayvon va mahluq personajlari ham bo'lgan.

"Chodir xayol" ham ma'lum sonda va xususiyatdagi hajviy-satirik va tipik personajlardan iborat. Bular ma'lum portretlar masalan, Xudoyorxon, Puchuq oftobachi, Saydulla yuzboshi, Qo'ng'irboy ko'mirchi va shu kabi nomlarda bo'lishi mumkin edi.

O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri aynan Yevropa rusumidagi zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri uchun poydevor vazifasini o'tagan. Bugungi kunga kelib, aynan an'anaviy qo'g'irchoq teatri va zamonaviy qo'g'irchoq teatri aktyorlariga xos bo'lgan xususiyatlar biroz farq qiladi. Biroq, hamma davrda ham teatr va aktyorlar inson ruhiyati va ma'naviy olamiga ta'sir etishdek yuksak vazifasini ado etganlar.

¹² Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006. 34-35-b.

I.2. Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari

Tomosha san‘atlari ichida eng mo‘jizakor, eng sirli va eng quvnoq san‘at bu qo‘g‘irchoq teatri san‘atidir. Bunda har bir buyum, har bir asar, har bir harakat faqat bolalar – yosh tomoshabinlarning miriqib hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Qo‘g‘irchoqbozlar qo‘g‘irchoqqa go‘yoki jon bag‘ishlab, bolaning gul kabi nozik qalbida mo‘jizaviy g‘alayonlar, tiniq, beg‘ubor nigohlarida hayratlanarli dunyoni yaratadilar. Qo‘g‘irchoq teatriga bir marta kelgan bola bu yerni hamisha qumsab yurishi tabiiy. Ertaklar dunyosini bolalarning ko‘z o‘ngida yaratib beradigan qo‘g‘irchoqbozlarning bitta spektakli tayyor bo‘lishi uchun bir necha oylar kerak bo‘ladi. Avval yangi pesaning muhokamasi, keyin pesa qahramonlari qiyofasi, sahna bezaklari, dekoratsiyalar muhokamasi, undan so‘ng rassomning qo‘g‘irchoqlarni yasashi va ularga o‘ziga xos xarakter berishi jarayoni. Keyingi navbat rejissor va aktyorlarning qo‘g‘irchoqlar bilan ishlashiga keladi. Va nihoyat repetitsiyalar tugab premyera namoyish etilishi vaqtida qo‘g‘irchoqbozlar necha oylar davomida qilingan mehnatlarining mahsulini bolalar qanday qabul qilayotganlarini kuzatishni boshlaydilar. Ular o‘z rollari bilan yosh tomoshabinlarni qo‘g‘irchoqlar dunyosining sehrliligi olamiga olib kirib ketadilaru, o‘zlari ijro etayotgan qushlar, o‘simliklar, xayvonlar va boshqa buyumlar bilan bolalarning ochiq muloqotda bo‘layotganlarini ko‘rib, sezib, his etib turadilar. Xuddi shu vaqtda sahnadagi sirli harakatlarga ishonch bilan termulayotgan bolalarning ruhiy dunyosida hayratlanarli o‘zgarishlar sodir bo‘lar ekan, buning aksi sifatida tomosha zalidan eshitilayotgan bolalarning turli xil pichir pichirlari, his tuyg‘ularni ifodalovchi ovozlari qo‘g‘irchoqbozlar uchun eng muhim ahamiyatga ega daqiqalar hisoblanadi. Spektakl so‘ngida esa qo‘llarida qo‘g‘irchoqlar bilan bolajonlarning qarshisiga chiqib kelgan aktyorlarni ko‘rib hayratdan qotib qolgan, yoki minnatdorlik bilan rahmat deyayotgan, yoki hali ham

mo'jizalar mamlakatining sehridan chiqqan bolalarni ko'rish qo'g'irchoqbozlar uchun eng oliy mukofotdir.

Qo'g'irchoq teatrining aktyori asosan teatrda rol ijro etadi. Bunda unga qo'g'irchoqlar yordam beradi. U o'z faoliyatida har turdagi qo'g'irchoqlardan foydalanadi: qo'lqopli, ipli, trostli, planshetli va soyasi tushiriladigan qo'g'irchoqlar. Qo'g'irchoq teatri aktyorlarining faoliyati boshqa sohadagi aktyorlardan farq qiladi. U qo'g'irchoqni harakatlantirishning hissiy harakatlarini gavdalantirib beradi va tomoshabinga asar mazmunini ochib beradi.

Mana shu teatrdagi ijodiy ishning mazmun-mohiyati, badiiyligi, jozibadorligi bevosita aktyorlar ijrosida namoyon bo'ladi. Aktyor chin ma'noda teatrning yuzi hisoblanadi.

Aktyor (lot. actor – ijrochi) – drama, opera, balet, qo'g'irchoq teatri, estrada, sirk, kino, radio va televideniya rollar ijrochisi, artist. U o'z tanasi, ovozi, aqli, his-tuyg'ulari, qobiliyati vositasida jonli badiiy obraz yaratadi.¹³

O'z-o'zidan asosiy mas'uliyat aktyorlar zimmasiga tushadi. Shu sababdan uzoq yillar davomida aktyorlik mahoratining o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'lgan va aktyorlik san'atining o'ziga xos maktablari shakllangan.

Bugungi kun va zamonaviy turmush tarzimizda o'ziga xos darajada shakllangan milliy aktyorlik maktabi, xususan, qo'g'irchoq teatri aktyorligi ham ma'lum xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Zamonaviy qo'g'irchoq teatrlarida "jonli ijro" keng ommalashgan. Unda aktyor tomoshabinlar ko'z o'ngida o'zi harakat qilgan holda qo'g'irchoqni o'ynatadi. Bunday teatrlarda qo'g'irchoq sifatida istalgan buyumdan - uy-ro'zg'or buyumlaridan to maxsus tayyorlangan obyekt tanlanadi - jonlantirilgan timsol aktyor tomonidan boshqariladi.

¹³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 273-b.

Umuman olganda, qo'g'irchoq teatr san'ati, boshqa teatr san'ati turlaridan o'ziga xos obraz yaratish xususiyati bilan farq qiladi. Qo'g'irchoq teatr aktyori, rassom va qo'g'irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san'at asariga, ya'ni qo'g'irchoqqa jon bag'ishlaydi. Aktyor qo'g'irchoq orqali sahnada turib tomoshabinga aytgan olmag'an yurak dardini tabiatga, ona Vatanga bo'lgan muhabbatini, orzu-umidlarini, shirma orqasidan o'zi ko'rmagan holda izhor etadi. Ana shunda qo'g'irchoq sahnasida mo'jiza yuz beradi. Oddiy predmet – material jonlanadi va u ham inson kabi yashayotganligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga tomoshabin ham ishonib qo'g'irchoq bilan yig'laydi, kuladi, qayg'uradi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorining o'qib-o'rganish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri qo'l plastikasi va aniq harakatini rivojlantirishdir. Tana plastikasini o'rganish uchun qo'g'irchoq teatri aktyori ham muzey va ko'rgazmalarni tomosha qilishi, hayvonot bog'idagi hayvonlarni, tabiatni ko'p kuzatishi va ko'rganlarini esda olib qolishi zarur. Aktyorlar qo'g'irchoqda uning anatomiyasi va harakat texnikasini o'rganishlari kerak. Shu bilan birga muvozonat qonunlarini, tayanch nuqtasini, plastik imkoniyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir. Qo'g'irchoqboz aktyor uchun faqat bugina emas, balki bir holatga o'tishdagi harakatni kuzatish va qo'g'irchoqda shuni aks ettirish lozim. Masalan, tik turish holatidan o'tirish holatiga, yurishdan yugurish holatiga, o'tirish holatidan yotish holatiga o'tish va hokazo. Biroq, ba'zi qo'g'irchoqlar umuman insonga o'xshamaydilar. Ularning harakati ham inson harakatidek emas. Masalan, qo'g'irchoqlarning ba'zilari belidan egilmaydi, ularning qo'llari shunchalik kaltaki, ular biror predmetni ushlay olmaydilar, ular o'tira olmaydilar, yura olmaydilar. Shunday bo'lsa-da, ular insonga taqlid qilishi kerak. Chunki hayvonlar, hasharotlar, fantastik jonzorlar xulq-atvorida, insoniy xatti-harakatlar yo'q. Biroq qo'g'irchoq teatrida xuddi masal kabi inson xarakteri boshqa mavjudotlarga o'tadi. Qo'g'irchoq teatrida hayvon plastikasidan tez-tez foydalaniladi. Shu bilan birga hayvon – qo'g'irchoq uchun inson biomexanik harakat qonuni ishlatiladi. U ham o'tiradi, ikki oyoqlab yuradi, ovqatni qoshiq bilan olib yeydi.

Qo'llari bilan har qanday harakatlarni bajara oladi. Xullas, qo'g'irchoq teatriga kelib u yerda spektakl yoki estrada nomerlarini ko'rgan har bir tomoshabin, o'ziga tanish yoki notanish obrazda inson xarakteri mujassamligini ko'radi. Bu esa o'sha obraz plastikasini, hissiy holatini to'g'ri bera olgan aktyor uchun katta yutuqdir.

Qo'g'irchoqboz o'zining ichki hayot boyligini qo'llari orqali qo'g'irchoq harakatida ko'rsatadi. Aktyor qo'llari orqali tashqi hayot bilan aloqaga kirishadi. Hayotda insonlar qo'li bilan qilinmaydigan narsalar, aktyor qo'g'irchoqboz qo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, aktyorlar qo'g'irchoq teatrida voqealarni qiziqarli va ravon ko'rsata olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlarining sohaviy xususiyatlari borasida ko'p fikrlar va qarashlarga duch kelamiz. Avvalambor, o'z sohasiga fidoyilik. Bu hamma soha mutaxassisi uchun umumiy xususiyatdir. Chunki o'z sohasini seva olmagan ijodkor qiyinchiliklarga tez yengiladi, o'z vazifalarini qo'l uchida bajaradi, ijodidan zavqlanmaydi. Bu esa sohadagi rivojlanishga asosiy to'siq vazifasini o'taydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlik san'atida ham aqliy, ham jismoniy, ham ruhiy bosim orqali ishlash o'ziga xos mahoratni, tinimsiz o'z ustida ishlashni, sabr-qanoatni va tajribani talab etadi. Shu boisdan qo'g'irchoq teatri aktyori zimmasida boshqa aktyorlik sohalariga nisbatan ikki hissa mas'uliyat va murakkablik bor. O'z his-tuyg'ularini jonsiz predmetga o'tkazish uchun haqiqatda aktyorlar kuchli psixologik dunyoqarash va aktyorlik pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat sohasini chindan sevgan ijodkorlarda shakllanadi.

Har qanday amaliy jarayon, har qanday ijod turida ham nazariyasiz natijaga erishib bo'lmaydi. Umuman, qo'g'irchoq teatri aktyori birinchi navbatda, teatrning tarixiy kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, rivojlanish omillari, asosiy tur va yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ikkinchi navbatda, ijodkor aynan aktyorlik mahoratiga xos nazariy masalalar: texnika, yondashuv, usul, uslub, jismoniy qoidalar, mahoratni shakllantirish qoidalari xususida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim.

Ma'nan keksaygan ijodkor aktyor bo'la olmaydi. Qo'g'irchoq teatrining joriy vazifasi bolalarga xizmat qilmoq ekan, aktyor ham bola bo'lib qolishi, bolalarcha fikrlay olishi, bolalarni tushunishi kerak. Navbatdagi muhim xususiyat aynan qo'g'irchoq teatri aktyorlarining bolalar psixologiyasi bilimdoni bo'lishi. Bunda aktyor bolalar xarakterini, bolalar nimani xohlashiyu nimani yoqtirmasligini, bolalarga ta'sir etish yo'llarini o'rganish vazifasini ado etishga intilishi kerak.

“Mahsulotni tayyorlovchi” ijodkor o'z “mijozlar”ini tanishi, ularning ehtiyojlarini oldindan anglay bilishi lozimligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

Bevosita bolalar uchun mo'ljallangan spektakllarda ayrim dramaturgik vaziyatlar tomoshabinda beixtiyor kulgu uyg'otadi. Mana shu yumoristik vaziyatlarni yetkazib berishda aktyordan favqulodda bolalarcha quvnoqlik, sho'xlik va o'yinqaroqlik talab etiladi.

Masalan, Respublika qo'g'irchoq teatri repertuaridagi “Uch quvnoq cho'chqacha” spektakli qahramonlarini jonlantirishda aktyorlar ilk navbatda yumorga alohida e'tibor qaratishi va buni qo'g'irchoqlar vositasida aks ettira olishi kerak. Sababi, qahramonlardagi xarakter bolalarga yetib borishi va ta'sir qilishi uchun aktyor tomonidan bo'rttiriladi.

Avvalo, nutq har qanday badiiy asarning matni asosida vujudga keladi va uning asosi so'z hisoblanadi. Bunda dramaturgiyaning mukammalligi, mantiqiyliigi va badiiy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. “Nutq fikrning shakllanishiga va uning mantiqiy yo'nalishiga sharoit yaratibgina qolmay, tinglovchiga ta'sir ko'rsatuvchi, muayyan narsalarga ishontiruvchi vosita hamdir. Nutq orqali so'zlovchi o'z fikrini tushunishga, o'zi qanday oylayotgan va his etayotgan bo'lsa shundayligicha qabul qilishga suhbatdoshini majbur qiladi”¹⁴

Ilk navbatda nutq mana shunday xususiyatga ega bo'lishi kerak. Undan keyin aktyor mana shu nutqni ijro etish mobaynida asosiy rolga o'tadi. Aktyorlar avvalo nutq borasida aniqlik, ravonlik, tabiiylik, moslashuvchanlik, ritm, serqirralik va

¹⁴ Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. T.: Fan, 1980. 25-b.

ta'sirchanlikka ega bo'lishi kerak. Nutqni qahramon xarakteri, qiyofasi va mavjud voqeaga moslashtirishda aktyorning xato qilishga, sun'iy yondashishga haqqi yo'q. Shunday ekan, shakllangan nutq aktyorning eng zaruriy qurolidir.

Nutqni yuzaga chiqarishda qo'g'irchoq teatri aktyorlarining ovoz imkoniyatlari, manerasi ham muhim rol oynaydi. Sababi, spektakllardagi qahramonlar asosan bolalar yoki turli mavjudotlar bo'lgani uchun ularga kichik yoshdagi xarakterli, erka, injiq, qaysar, quvnoq, jahldor, ingichka, yo'g'on ovozlari mos tushadi. Bunda aktyor o'zining tabiiy ovozidan voz kechib, qahramon uchun yangi ovoz hozirlaydi va bu qo'g'irchoq teatri aktyorlarining boshqa turdagi aktyorlar ovoz imkoniyatiga qaraganda alohida mahoratga ega bo'lishlarini talab etadi.

Aktyor asosan predmetni jonlantirsa-da, unda plastika imkoniyatlari yuksak darajada shakllanishi lozim. Jismoniy plastika yordamida qo'llari va gavda holatlari egiluvchan bo'lishi, jismoniy jihatdan kuch-quvvatga ega bo'lishi lozim. Sababi aktyor uzoq vaqt davomida tik holatda turishi, qo'llarini yuqoriga ko'targan holda harakatlanishi, o'tirib, engashib, cho'kkalab qo'g'irchoqni oynatishi mumkin. Qo'llar harakatidagi aniqlik, tezkorlik yana bir muhim jihat hisoblanadi.

Avval aytganimizdek, aktyorning plastika boyicha nazariy bilimlari ham bo'lishi lozim. Birinchi navbatda, harakatlantirilayotgan mavjudotlar, hayvonlar yoki qushlar aynan qanday plastika boyicha harakatlanishini bilish lozim. Masalan, ilon "zigzak" usulida sudraladi, burgut qanotini tekis ko'tarib uchadi, pingvin lapanglab yuradi va hokazo.

Ikkinchi navbatda, insoniyatga xos plastik xususiyatlarni bilish lozim. Bilamizki, mavjudotlar tomoshada insonlarga xos xarakterda namoyon bo'ladilar va insonlarga xos harakatlarni ham bajaradilar. Masalan, boyo'gli o'tirishi, qarg'a choy ichishi, toshbaqa qarsak chalishi mumkin va hokazo.

Qo'g'irchoq teatrining yana o'ziga xos, betakror tomoni shundaki, unda aktyor qo'g'irchoqsiz, yalang'och qo'llari bilan ham sahnaviy obraz yarata oladi. Qo'g'irchoqsiz qo'llar orqali obraz yaratish qadimgi Xitoy, Eronda va bizning

davrimizda S.V.Obrazsov, fransuz aktyori I.V.Jolie tomonidan konsert nomerlarida foydalanilgan. Bu nomerlarda turli rangdagi qo‘lqoplar va barmoqqa kiyiladigan sharchalaradan foydalanilgan.

Bunday obrazlarni yaratish, qo‘g‘irchoq ushlab obraz yaratishdan oldingi jarayon bo‘lib, juda murakkab yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalish talabalardan o‘ta talabchanlikni, ma’suliyatni, boy tasavvurni va kuchli mahoratni talab qiladi. Aktyor mohir qo‘l bilan ishlash ustasi bo‘lishi uchun avval uning qo‘llari boy plastikaga ega bo‘lishi kerak.

M.Ashurovaning “Qo‘g‘irchoq teatri san’atining aktyorlik maktabi” darsligida keltirilishicha, Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘llar orqali obraz yaratishning ikki xil xususiyati bor:

1. Aktyor qo‘lining tasvirlovchi xususiyati;
2. Aktyor qo‘lining harakat qilish qobiliyati.

Qo‘g‘irchoq aktyorining ijod jarayonida bu ikki yo‘nalish bir-biriga bog‘liq holda kechadi. Talabalar o‘zlarining harakatchan qo‘llari bilan har xil hayvon, qush, baliq, gul, daraxt, bola, chol va boshqa obrazlar g‘oyasini yaratib, ularni tasvirlab, so‘ng harakatga keltirishadi.¹⁵

Masalan, sahnada harakatsiz qo‘l orqali aks ettirilgan kuchuk boshi. Hozir u aks ettirish vazifani bajaryapti. Bunday tasvirlarni istagancha ko‘rsatish mumkin. Mana, barmoqlar harakatga kelib, kuchukning vovillayotganini ko‘rsatdi. Uning og‘zi qanchalik qimirlasa jahldor kuchukligi ma’lum bo‘ladi. Agar bu harakatga tovush ham qo‘shilsa, obraz yanada jonliroq chiqadi. Tasvirning bu turi, tasviriy san’atning boshqa turlaridan ajralib turadi. Chunki san’at asari yaratuvchilarning hammasi jonsiz materiallardan foydalanadilar. Bu yerda esa, tirik inson qo‘llari. Bu qo‘llar aks ettirib, shu bilan birga harakat qilsa, endi ular kichik aktyorlarga aylanadilar. Demak, ular ham yaratuvchi, ham aktyordirlar.

¹⁵ Ashurova M. Qo‘g‘irchoq teatri san’atining aktyorlik maktabi. T.: Kuro print, 2007, 65-b.

Bugungi o'zbek zamonaviy teatrida aktyorlik mahoratini shakllantirish xususidagi tahliliy masalalarga ikki jihatda e'tibor qaratamiz.

Birinchi jihat, ilk navbatda mahoratni shakllantirish masalasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan boshlanadi. Sababi, aynan asosiy boshlang'ich mahorat aktyorlarning talabalik davri bilan bog'liqdir. Shubhasiz, ta'lim muassasasining eshigidan kirib kelgan bo'lajak qo'g'irchoq teatri aktyori uchun ham birinchi navbatda, qo'g'irchoq teatri tarixi, qo'g'irchoq teatri san'ati nazariyasi va asosiy xususiyatlari o'rgatiladi.

Umuman olganda, qo'g'irchoq teatri san'ati mutaxassislarini, xususan, mahoratli aktyorlarini tarbiyalash hamma davrning muhim va dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Nainki, bunga doim ehtiyoj seziladi. O'ziga xos jozibaga ega san'at turining ravnaq topishi uchun hamda jahon teatrlari orasida yanada yuqorior nufuzga ega bo'lishi uchun har tomonlama yetuk, yuqori madaniyatli, o'z kasbinining mohir ustasi, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, zamon talabiga javob beradigan yuqori darajali mutaxassislarni tarbiyalashdek o'ta mas'uliyatli ish bugungi kun talabidir.

Tarbiyalanayotgan mutaxassislar ma'naviy va jismoniy jihatdan baquvvat, har tomonlama bilimli, aktyorlik kasbining turli janrlarini yuksak professional darajada egallagan, qo'g'irchoqlarning barcha turlarini mahorat bilan boshqaradigan, kattalar va ayniqsa, bolalar psixologiyasini chuqur his etadigan, tasviriy san'at turlari va janrlari bo'yicha keng bilimga ega mohir san'atkorlar bo'lib yetishmoqliklari darkor.

Bu borada ta'lim muassasasidagi "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi mahorati" fanidan quyidagi yo'nalish bo'yicha ishlar olib boriladi¹⁶:

1. Aktyorning ijod jarayonidagi o'z ustida ishlashi (jonli plan);
2. Zamonaviy qo'g'irchoq turlarini o'zlashtirish;
3. Aktyor ijodi jarayonidagi obraz ustida ishlash va uning uslublari;

¹⁶ Ashurova M. Qo'g'irchoq teatri san'atining aktyorlik maktabi. T.: Kuro print, 2007. 11-b.

4. Aktyorning qo'g'irchoq obraz talqini ustidagi ishi (qo'g'irchoq personajlarining plastik yechimlari)

Mazkur san'at turini to'liq o'rganib, o'zlashtirish uchun sahna nutqi, raqs, pantomima, sahna harakati, ritmika, qo'g'irchoq yasash va boshqarish texnologiyasi, musiqa asoslari, qo'shiqchilik, teatr tarixi, bolalalar va kattalar psixologiyasi, jismoniy madaniyat kabi darslarni ham to'la-to'kis o'zlashtirish talab etiladi.

Aktyor birinchi navbatda sinchkov, kuzatuvchan bo'lishi kerak. U hayotni, turmush tarzini, xalq urf-odatlarini, odamlarning psixologiyasini va xarakteriga xos xislatlarini, tabiat va hayvonot dunyosini bilishi shart. Bu aktyor uchun nihoyatda zarur fazilat hisoblanadi. Shundagina uning rollarida jonlilik, tabiiylik tomoshabinni o'ziga maftun etadi.

Hamma teatrdagi kabi qo'g'irchoq teatrida ham aktyor mahorati ilk navbatda xatti-harakat mohiyatini tushunish bilan o'lchanadi. Umuman, talabalar, to'rt yillik ta'lim olish jarayonida teatrdagi umumiy harakat nazariyalarini o'rganadilar. M.Ashurovaning keltirgan ma'lumotiga binoan, harakat uch xil holatda bo'ladi.¹⁷

1. Jismoniy harakat bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish, gul taqdim qilish, o'sma qoyish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun uchun moslama sifatida xizmat qiladi.

2. Psixik harakat inson ongiga, ruhiga, holatiga ta'sir qilib, uni o'zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, sevgi izhor qilish va h.k.)

3. So'zli harakatda so'z aynan sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytiladi. So'z inson psixikasiga, ya'ni intellektiga, tasavvuriga va his-tuyg'usiga har tomonlama ta'sir qilish kuchiga ega.

Fizik, psixik va so'zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo'naltiriladi.

¹⁷ Ashurova M. Qo'g'irchoq teatri san'atining aktyorlik maktabi. T.: Kuro print, 2007. 20-b.

Shuningdek, o'zbek zamonaviy qo'g'irchoq teatri aktyorlarining mahoratini shakllantirish bosqichi turli amaliy jarayonlar, etyudlar, asarlardan parchalar, musiqiy namoyishlar, kichik sahna asarlari va shu tariqa, diplom spektakli dunyoga kelishiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Talabalar mana shu bosib o'tilgan yo'l ta'sirida ma'lum imkoniyatlarni o'zlarida mujassamlashtiradi. Tabiiyki, bu mahorat hamma talabada ham shakllanmaydi. Natijaga erishgan yosh mutaxassislar teatrdagi ish faoliyatlarini olib borish jarayonida, yillar davomida professional qo'g'irchoq teatri aktyori darajasiga erishadilar.

Ikkinchi jihat, zamonaviy qo'g'irchoq teatri aktyorlarining mahorati bugungi kun talabi, qo'g'irchoq teatri imkoniyatlari, bugungi kun personajlari va joriy repertuar asosida shakllanadi.

Respublika qo'g'irchoq teatrlaridagi spektakllarning aksariyati bolalar uchun mo'ljallanganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu sanab o'tilgan jihatlardagi asosiy tushunchalar quyidagicha tasniflanadi:

Bugungi kun tomoshabinlari uchun ma'naviy ozuqa olish manbalari juda ko'p. Bunga bevosita televizor, internet, dam olish oromgohlari, turli adabiyotlar, innovatsion kurs va to'garaklarni misol qilib keltirish mumkin. Shunday bo'lsa-da, teatrga tashrif buyuradigan tomoshabinlar ham talaygina. Ular uchun spektakldagi eng muhim komponentlar:

- tomoshaviylik;
- yumor;
- rang-baranglik;
- musiqqa;
- aniqlik;
- sho'xlik;
- zamonaviylik;
- tabiiylik;
- improvizatsiya;

–muloqot va hokazo.

Shu asosda, o'rtaga tashlangan g'oya va harakatlardagi temp ham ahamiyatdan chetda qolmaydi. Mana shu muhim jihatlar o'zida mujassam tomosha albatta katta qizg'inlik va olqishlar bilan kutib olinadi. Bizning qo'g'irchoq teatri aktyorlari esa mana shu komponentlarga xos tarzda rol oynashi, tomoshabin va davr talablaridan uzilib qolmasligi kerak.

Hamma teatrning o'ziga xos darajada imkoniyatlari va xususiyatlari mavjud. Mahoratli aktyorga qadar yo'l-yo'lakay dramaturg, rejissor, rassom, qo'g'irchoq ustasi, sahna ustasi, chiroqchi, ovoz rejissori va boshqa ijodiy guruh a'zolari aynan teatr imkoniyatlari asosida faoliyat yuritadi. Mahoratli aktyor aynan teatr va rejissor yaratib bergan imkoniyatdan ustalik bilan foydalana olishi lozim bo'ladi. Umuman, aktyor quyidagi komponentlarga moslasha olishi lozim:

- tanlangan pyesaga;
- topshirilgan obrazga;
- sahna imkoniyatlariga;
- texnik imkoniyatlarga;
- qo'g'irchoq turiga;
- reglamentga;
- tomoshabinga;
- roldagi hamkoriga va hokazo.

Mana shu sharoitga moslasha olish va vaziyatda o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish orqali bugungi kun qo'g'irchoq teatri aktyorlarining mahorati birmuncha baholanadi.

Teatrdagi qahramonlar mislsiz qo'g'irchoqlardir. Insoniyat xayoli ham bolalar tasavvuri kabi cheksiz va bepoyon. Shartli ravishda bo'lsa ham qo'g'irchoq teatrlari sahnasida hamma narsa jonlanishi mumkin. Taxminan, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- insonlar jonlantiriladi;

- hayvonlar, qushlar va boshqa mavjudotlar jonlantiriladi;
- tabiat ne'matlari (daraxtlar, mevalar, maysalar, tog', sharshara, shamol, quyosh va hokazo) jonlantiriladi;
- narsa-predmetlar (shkaf, televizor, kastyum, koptok, qozon va hokazo) jonlantiriladi;
- mavhum tushunchalar (tuyg'ular, farazlar, g'oyalar va hokazo) jonlantiriladi.

Aynan mana shu jonlantirilgan personajlarga mos tarzda harakatlanish, ularni ma'lum obrazda tasavvur eta olish, ovoz bera olish va his etish mahoratli aktyor uchun muhim vazifadir. Bugungi kunda bizda mazkur turlarning hammasi deyarli uchraydi. Masalan, birgina "Yana Andersen" spektaklida ham inson, ham jonzot, ham tabiat ne'matini jonlanganini guvohi bo'lamiz.

Bu aynan shakl nuqtai nazaridan personajlarni turlarga ajratilishidir. Boshqa jihatlardan ham personajlarni qator turlarga ajratish mumkin. Masalan,

Spektakldagi umumiy xususiyatlariga ko'ra,

- ijobiy va salbiy;
- xayoliy va haqiqiy;
- tabiiy va notabiiy;
- faol va nofaol personajlar bo'lishi mumkin.

Spektakldagi texnik xususiyatlariga ko'ra,

- qo'lqopli;
- simli (ipli);
- trostli;
- niqobli;
- aralash (ham inson ham qo'g'irchoq umumiylikdagi personaj, bunda qo'g'irchoq tanasi sun'iy homashyodan tabiiy texnika asosida yasaladi, uning qanoti aktyor qo'lidan hosil qilinadi. Masalan, "Yana Andersen" tomoshadagi G'oz personaji)
- soyali va hokazo.

Spektakl personajining obraz xususiyati va xarakteriga ko'ra,

–sho'x;

–quvnoq;

–yovuz;

–tabiiy;

–keksa;

–yosh va hokazo.

Har qanday xususiyatdagi personajni ijro etib bera olish orqali bugungi aktyorlar mahoratini yana bir karra charxlaymiz.

Keyingi navbatda joriy repertuar orqali aktyorlar faoliyatini baholaymiz. So'nggi yetti yil ichida Respublika qo'g'irchoq teatrida turli asarlar sahnalashtirildi. Odatda repertuardagi rang-baranglik ham aktyorlarning mahoratini belgilovchi muhim jihat hisoblanadi. Boisi, asar tanlayotgan teatr jamoasi yoki rejissor teatrdagi aktyorlar imkoniyatidan kelib chiqadi. Ma'lum asarni oynay olishi uchun aktyorlar jamoasiga ishonch bildiradi. Repertuardagi spektakllarning xususiyatlariga binoan quyidagi turlarga ajratish mumkin.

Yosh nuqtai nazardan:

–maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar uchun;

–maktabning boshlang'ich sinfdagi bolalari uchun;

–maktabning yuqori sinfdagi bolalari uchun;

–imkoniyati cheklangan bolalar uchun.

Aynan repertuar xususiyatlariga alohida keyingi boblarda to'xtalib o'tamiz. Bir so'z bilan aytganda, bizning qo'g'irchoq teatrlarimizda aktyor mahorati mana shu ikki asosiy jihat asosida belgilanishi mumkin.

Yuqoridagi asosiy xususiyatlarni umumiyashtirgan holda, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, qo'g'irchoq teatrining aktyori kuchli, epchil va harakatlari o'zaro mos bo'lishi kerak. Chunki ayrim qo'g'irchoqlar gabarit, ushlariga noqulay va qo'pol bo'ladi. Aktyorlarga esa spektakl mobaynida ularni ushlab turish, sakrash,

yugurish va ovoz berish muhim sanaladi. Ijodiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim: yoqimlilik, «dadillik», hazil-mutoyibalik, hajviy hissiyotlilik, notiqlik qobiliyati, marom va mutanosiblik hissi, estetik, badiiy did, adabiy qobiliyat. Timsolni yaratish davomida aktyorga tilshunoslik, so'zlarni xotirada saqlash, harakatni ifodalash, artikulyatsiya (nutq harakati) va jestikulyatsiya (imo-ishoralar harakati)ni rivojlantirish katta yordam beradi.

Umuman olganda, qo'g'irchoq teatri aktyorlarining faoliyatida ham asosiy xususiyat xatti-harakat bilan bog'liq holda kechadi. Biz sanab o'tgan xususiyatlar ham umumiy asosda aktyor xatti-harakati uchun xizmat qiladi.

Sahna san'atida har bir aktyorlik sohasi vakilining harakatlanish vositasi bo'ladi va ularning maqsadida umumiylik bo'ladi. Hamma aktyor voqe'likni qaysidir yo'l orqali ifodalaydilar. Balet san'atida ijrochi tana harakatlari orqali, dramatik aktyor tana va so'z uyg'unligida tabiiy ravishda o'z vazifasini bajaradi. Qo'g'irchoq teatri aktyori esa birmuncha farqli shart-sharoitda, ya'ni, o'z tanasini emas, qo'g'irchoq tanasini harakatlantirish orqali o'z vazifasini bajaradi.

Qo'g'irchoq teatrida aktyorning jismoniy harakati sun'iy shakl bilan psixik harakati o'rtasidagi vosita bo'ladi. Demak, bir vaqtning o'zida ikki harakat oqimi sodir bo'ladi. Ya'ni, ularning biri yaratadi, ikkinchisi esa ifodalaydi. Bularning har ikkalasi aktyorning sahnaviy xatti-harakati jarayonida birlashadi. Qo'g'irchoq teartida sahna xatti-harakati qo'g'irchoq plastik harakatiga aylantirilib aktyorni, jismoniy xatti-harakati bilan almashtiriladi. Shuning uchun qo'g'irchoq teatridagi plastik harakat aktyorning ichki harakati bilan tabiiy bog'liqligi kam bo'lganligi tufayli, jismoniy xatti-harakatga ega bo'lish boshqa teatrlardagidek sodir bo'lmaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari mana shu jihatlarda namoyon bo'ladi deb baholayapmiz. Bunda aktyorning asosiy vazifalari ham, boshqa ijod ahlidan farqli jihatlari ham aytib o'tildi. Qo'g'irchoq teatri sahna san'ati turi sifatida murakkab, uzoq yillik tarixga va o'ziga xos xususiyatlarga ega sohadir.

Bu benazir san'at turida faoliyat yuritish har qanday aktyor uchun sharaf va faxr bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa ijodkorda sohaga nisbatan talabchanlikni, e'tiborni va professionallikni yuzaga keltiradi.

II BOB. Respublika qo'g'irchoq teatrida rejissor va aktyor hamkorligi

2.1. Rejissor talqini va aktyor individualligi

Teatrdagi dunyoga keladigan spektakl bevosita juda ko'p ijodkorlarning bir maqsaddagi izlanishlari mahsuli. Spektakl, uni yaratadigan ijodkorlarning hamkorligi, individual intilishlari, bahslari va qarashlarining bahamjihatligi va kerakli bir nuqtaga yig'ilib, bir-birlariga mos kelishi natijasida yuzaga keladigan hodisa. Bu jarayonda rejissor, ijodkorlarning fikrlarini, his-tuyg'ularini kerakli tomonga yo'naltiruvchi yagona birlashtiruvchi kuch hisoblanadi.

Teatr san'atining rivojlanish tarixiga nazar tashlasanganda, ma'lum bo'ladiki, rejissorlik kasbi ancha keyin shakllangan. Aktyorlarning tomoshaga tayyorgarlik ko'rishlarida oddiy nazoratchi sifatida sahna ortida o'tirgan bu kishi hozirga kelib, teatrning haqiqiy sehgari va shu bilan birga mutafakkiri darajasiga ko'tarildi. Rejissor teatrning tashkilotchisi, uning g'oyaviy, metodik, estetik yo'nalishining, yagona ijodiy istiqbolini belgilovchi lideri va tarbiyachisi. Uning qo'lida teatrning murakkab mexanizmining kaliti bor va u butun jamoaning ijodiy istaklarini birlashtirib, ularni amalga oshiruvchi yo'l boshchi.

Rejissor so'zining mohiyatini tahlil qilishdayoq aslida bu sohadagilar boshqaruvchi ekanligini payqab olish mumkin.

Rejissor (lot. — boshqaraman) — spektakl; film, tele va radio ko'rsatuv va eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashtiruvchi shaxs. O'z ijodiy o'ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari — aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy voqelik yaratadi.¹⁸

Demak, rejissor – ijodiy jarayonning sarkori, yaratuvchisi, avval boshida bu ijod jarayoni g'oyasini begilovchi, uni yagona to'g'ri yo'lga boshlab boruvchi, atrofidagi boshqa hamma ijodkorlarni o'z qarashlariga, fikriga, g'oyasiga ishonтира oladigan,

¹⁸ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 291-b.

maftun qila oladigan ijodkor. Rejissor atrofida qilarni ilhomlantiradi va ulardan ilhomlanadi. U spektakl yaratish jarayonida nafaqat jamoani ijodiy boshqaradi, balki sahna san'atining umumiy vazifalari va yagona ijodiy uslubiyati (metodi) asosida jamoani tarbiyalaydi.

Rejissorlik san'ati – garmonik bir butun va muayyan yahlitlikka ega bo'lgan tomosha, ko'rinish yaratish san'ati (teatr, kino, telefilm, sirk va estradada). Rejissor sahna asari yoki kinofilm yaratish jarayonida ijodiy xodimlar — aktyor, yakkaxon, rassom, kompozitorga (kino va televideniya operatorlarga ham) va yordamchi xodimlarga rahbarlik qiladi.¹⁹

Rejissorlik sohasi keng qamrovli soha, juda ko'plab san'at turlarini rejissorsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularning har biri o'z sohasining xususiyatlaridan kelib chiqib o'z faoliyatlarini tashkil etadilar.

Masalan, qo'g'irchoq teatri rejissorligi sohasining vazifalari teatrda quyidagi asosiy bosqichlarni qamrab oladi:

- pyesa tanlash;
- tanlangan pyesa g'oyasi, janri va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijobiy uslubini o'rganish;
- qo'g'irchoq turini tanlash, qo'g'irchoq ustalari bilan bu borada muhokama olib boorish;
- asar talqini uchun sahna vositalarini izlash;
- har bir personaj xususiyati, xarakteri va umuman, spektakl talabiga monand aktyorlar tanlash;
- aktyorlar uchun tanlangan pyesa yuzasidan tahliliy ko'rsatmalar berish;
- sahnaviy ritm va sur'atni belgilash;
- mizansahnalar yaratish;

¹⁹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 291-b.

– rassom va kompozitor bilan hamkorlikda asarni badiiy bezash prinsiplarini ishlab chiqish;

– spektakl tayyor bo'lgunga qadar repetitsiya jarayonlarini boshqarish va hokazo.

Aynan ma'lum bo'ladiki, rejissura sohasida qo'g'irchoq teatri rejissorligi alohida ajralib turadi. Respublika qo'g'irchoq teatri (Toshkent, 1939 yilda tashkil topgan), undan keyin Andijon, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Xiva, Termiz shaharlarida barpo etilgan qo'g'irchoq teatrlarida o'nlab rejissorlar bu san'atning saviyasini ko'tarish, nainki bolalar orasida, balki kattalar orasida ham uning nufuzini oshirish uchun mehnat qilmoqdalar. Qo'g'irchoq teatri rejissurasining rivojlanishida I.Yoqubov, M.Ashurova, S.V.Iogelson, Sh.Yusupov, D.Yuldasheva kabi rejissorlarning xizmatlari alohida.

Rejissorning vazifalaridan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkinki, quyidagi uch muhim faoliyat rejissuraning asosidir:

- boshqaruvchilik;
- tashkilotchilik;
- ijodkorlik.

Rejissor uchun boshqaruvchi va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritish ma'lum spektakl ijodiy jamoasini nazorat qilish va spektakl tashkiliy masalalariga mualliflik qilish bilan izohlanadi. Rejissorning ijodkorligi esa uning ma'lum asarga qanday talqinda yondashishi bilan o'lchanadi. Aynan spektakldagi rejissor talqini orqali tomoshaning ahamiyati, qiymati va tomoshaviyligi oshadi.

Talqin tushunchasi ham san'atning qator turlariga xos faoliyatdir. Bu bevosita ijodiy kategoriya hisoblansa-da, ma'lum nazariy xususiyatlardan holi emas.

Talqin (arab. — tushuntirish, nasihat) — 1) o‘ziga xos ($3/8+3/4$ yoki $9/8$ takt o‘lchovidagi) doira usuli (lang yoki oqsoq deb ham yuritiladi); 2) shu usul asosida yaratilgan kuy, ashula va maqom yo‘llari.²⁰

Bu ta’rif musiqa san’atiga xos talqin ma’nosida kelmoqda. Talqin tushunchasi mohiyatan ma’lum san’at turida ijodkorning o‘z dunyoqarashi, fikrlashi va uslubiyatiga xos yondashuvlari majmuidir. Demak, ma’lum spektakl talqini aynan san’at vositalaridan qay usulda, qay shaklda foydalanilganlik darajasi bilan nisbatlanadi. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatrida rejissor talqini juda muhim ahamiyatga ega. Boisi, yozilgan pyesa, ertak, adabiy asos o‘z holidan to‘laligicha injiq va talabchan yosh tomoshabinlar uchun manzur bo‘lmasligi, ularning diqqatini uzoq vaqt ushlab turmasligi mumkin. Shu asosda rejissor spektaklni sahnalashtirish jarayonida har bir komponent uchun ijodiy talqin nuqtai nazaridan yondashishi kerak bo‘ladi. Buning uchun rejissor badiiy fikrlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Sahna imkoniyatlarini, unsurlarini yaxshi bilish rejissyordagi badiiy fikrlash qobiliyatining nishonasi. Badiiy fikrlash intellektual faoliyatning shunday turiki, u orqali san’at asari yaratiladi va idrok qilinadi. Bu insonning mutlaqo o‘zgacha fikrlash qobiliyati hisoblanib, kechish jarayonining xarakteri bilan, piravard maqsadi, sotsial vazifasi va jamiyat hayotiga kirib borish uslubi bilan ajralib turadi.

Rejissyorning badiiy fikrlashi uning yagona o‘y-fikri va uni amalga oshirishi orqali, oxir-oqibat uning badiiy ijodi mahsuli bo‘lmish - badiiy yaxlit spektaklda ifodalanadi. Spektakl - rejissyorning ma’naviy-ruhiy-mazmunli fikrlarining materiallashgani, amalda namoyon bo‘lishi, rejissyor to‘plagan badiiy ma’lumotlarning mujassamlashgan manbayi va zaxirasi hisoblanadi.

Masalan, badiiy fikrlash qobiliyatiga ega qo‘g‘irchoq teatri rejissori uchun ijodiy talqin quyidagi jihatlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

– spektakl janrini belgilash;

²⁰ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 245-b.

- qo'g'irchoqlar shaklini tanlash;
- personajlarga xarakter berish;
- sahna dekoratsiyasi yuzasidan rassom bilan fikr almashish;
- musiqiy yondashuvlar;
- ramziy yondashuvlar;
- zamonaviy-texnologik yondashuvlar;
- dramaturgik asos yuzasidan yondashuvlar;
- spektaklda temp va ritm jihatlariga e'tibor qaratish;
- chiroq va boshqa texnik jihatlardagi yondashuvlar va hokazo.

Rejissor adabiy asosni qo'liga olgandan so'ng, uning janriy xususiyatlari ustida bosh qotiradi. Masalan, komediya, sarguzasht, myuzikl... Xususan, komediya janri misolida oladigan bo'lsak, bir nechta jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Birinchi navbatda, asarni komediyani qaysi yo'nalishda sahnalashtirishni aniqlash kerak. Shu asosda asar ruhiyati yuzaga chiqadi, qo'g'irchoq shakli belgilanadi, ularga xarakter beriladi hamda dekoratsiya va boshqa vositalarni tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

Respublika qo'g'irchoq teatri repertuarida komediya janrida turli spektakllar sahnalashtirilgan.

D.Yuldasheva rejissurasi namunasi, "Oh, bu Xo'ja Nasriddin!" tomoshasi Nasriddin Afandining latifalariga asoslangan bo'lib, o'zbek xalqining qadimiy va o'lmas qahramonini yana bir bor eslashga, unga tahsin o'qishga chorlaydi. Chunki uning o'tkir so'zi, sho'x kulgusi va hazil-mutoyibasi xalqimizning kundalik hayotidan chuqur o'rin egallagan. Nasiriddin Afandi xalqimizning uzoq o'tmishga ega, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mashhur qahramonlaridan biri. Ular tildan-tilga og'zaki tarzda ko'chib kelib, hozirgi kunda yozma dramaturgiya hamda teatr sahnalarida yashamoqda. Odatda, u tovlamachi, riyokor, boylikka o'ch amir va boylarga qarshi kurashib, oddiy va sodda xalqning dardiga malham bo'ladi. Nasriddinning boshidan kechirgan sarguzashtlari, kulguli voqealari qo'g'irchoq

teatrining mo'jazgina sahnasida gavdalanadi va uning goh qo'g'irchoq, goh jonli qiyofadagi so'zamonligi, uddaburronligi, shumligi tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi.

Rejissor D.Yuldasheva spektaklda tabiiyki, milliy liboslar, milliy manzarani ifoda etuvchi dekoratsiya, milliy va sho'x musiqiy bezaklardan foydalangan. Aktyorlar personajlariga mos ravishda favqulodda chaqqon, qiziqqon, sho'x, uddaburon va quvnoq. Ularning xatti-harakatida va ovozida bo'rttirish, mubolag'a seziladi. Spektaklda ham qo'g'irchoqlar, ham aktyorlarning o'zlari ishtirok etadi. Qo'g'irchoqlarni harakatlantiruvchi aktyorlar oq liboslarda gavdalanadi. Ko'tarinki ruhdagi spektaklda qo'g'irchoqlar yorqin va yumoristik qiyofalari bilan bolalarni befarq qoldirmaydi. Rejissor faoliyati davomida har bir teatr vositasini yangicha va tomoshabop talqinda ask ettirishga harakat qilgan. Tomosha maktab o'quvchilariga mo'ljallangan.

D.Yuldashevaning yana bir "O'jar quyuncha" nomli spektaklida rejissorlik talqinining o'ziga xos namunasini ko'rish mumkin. M.Suponinning shu nomli asari asosida sahnalashtirilgan spektakl interaktiv xususiyatlarni qamrab oladi. Tomosha injiq va qaysar quyuncha haqida. O'jar fe'li tufayli hech kim bilan do'stlasha olmaydigan quyunchani bu fe'l-atvoridan qaytarish uchun Quvnoq bobo, olmaxon va ayiqpolvonlar har xil o'yinlar uylab topadilar. Bu borada spektaklni tomosha qilayotgan bolalar ham ularga ko'mak beradilar. Qaysar quyuncha ularni jerkib hafa qiladi va natijada yolg'iz qoladi. Yakkalanib qolgan quyunchaga bo'ri ro'baro' kelib uni dahshatga soladi. Bo'ridan qo'rqib ketgan quyuncha qilgan ishidan pushaymonligini tushunib bolajonlar, olmaxon va ayiqdan yordam so'raydi. Ular birlashib bo'rini ta'zirini beradilar. Maktab yoshidagi o'quvchilarga mo'ljallangan va "Birlashgan o'zar- birlashmagan to'zar" g'oyasini ilgari surgan mazkur tomoshada o'ziga xos talqin aktyorlar jamoasi tomosha davomida o'zlari dekoratsiyani qurishadi, o'zlari qo'g'irchoqlarni yasashadi va jonlantirishadi. Quvnoq o'yin-kulgu, raqs, bolalarbop tomoshalar, yorqin dekoratsiya, o'ziga yarasha bo'rttirilgan xatti-

harakatlar va musiqiy bezakdagi yondashuvlar spektakldagi tomoshaviylikni ta'minlagan.

Respublika qo'g'irchoq teatrida shu asosda rang-barang spektakllarning yangicha talqindagi namoyishlari, rejissorlarning o'ziga xos darajadagi yondashuvlari e'tirofga arziydi. M.Igamnazarova muallifligidagi X.Axunov tomonidan sahnalashtirilgan «Bahoroy va Navro'z» konsert-spektakli orqali rejissuraning musiqa va qo'g'irchoq teatri imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish mumkinligini uyg'un tarzda guvohi bo'lamiz. Asar boshlanishida uyg'onish, yangilanish fasli bahor inson ruhiyatiga ko'tarinkilik, go'zallik va nafosat olib kirishini, his etish mumkin. Ammo baland tog'larning muzliklarida yashovchi sovuq izg'irinlarni, qorli bo'ronlarni chorlovchi Ajuz-Majuz kampir bahor kelishini istamay Bahoroyni o'zining sovuq makoniga olib ketadi. Mard va pahlavon Navro'z uni ozod qilish maqsadida sehrli kuchga ega sumalakni isini atrofga taratib Ajuz-Majuz asira qilib olgan Bahoroyni ozod qiladi. Karnay va surnay sadolari ostida qo'g'irchoqbozlar baralla, «Ehe-he... Xush kelibsan, fasli navbahor! Assalom Navro'z!», deb jar solib hammani saylga chorlaydi. Dorbozlar chiqishi, kuragi yerga tegmaydigan kurashchilar musobaqalari, qo'chqor va xo'roz janglari barchani saylga chorlaydi. Anjijon polkasi, Surxon ohanglari, Hindistondan tashrif buyurgan raqqosalar, milliy kuy va qo'shiqlarimiz, yor-yoru, o'lanlarimiz barchani kayfiyatiga ko'tarinkilik olib kiradi. Bahoroy bilan Navro'z qadimiy bayramimiz bo'lgan Navro'z haqida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz to'g'risida tomoshabinlarga so'zlab berishadi.

Musiqa va qo'g'irchoqlar vazifasini uyg'un holda ma'lum kompozitsiyaga joylashtirish, qo'g'irchoq teatriga xos barcha turdagi qo'g'irchoq turlaridan foydalanish rejissor didi va talqinida o'ziga xos tomoshani yuzaga keltirgan. Tomosha davomida qo'lqopli qo'g'irchoqlar tomoshasidan zavqlangan tomoshabin birdan ipli qo'g'irchoqlar raqsiga beriladi. Dastakli, niqobli qo'g'irchoqlar ortidan aktyorlar o'z tana a'zolari (qo'l, oyoq)lardan ham personaj yasay boshlaydilar. Rejissor talqinidagi yondashuvlar, tomoshadagi yorqinlik, tezkorlik, temp va

aktyorlar mahoratidan yuqori darajada foydalanish albatta o'zini oqlagan. Bu spektakl bir qancha xalqaro e'tiroflarga munosib ko'rilgan.

Umuman olganda, teatrdagi har bir asarda rejissorlikni talqini bor. Biroq aynan asarlardagi qaytariqlar ham ko'zga tashlanadi. Bu qaytariqlar adabiy asarlardagi shtamp sujet, personaj va xarakterlarda, musiqa ijodkorlari va rassom yondashuvlarida birmuncha seziladi. Masalan, "Quloqsiz uloqcha", "Qizil shapkacha", "O'jar quyuncha", spektakllarida kulminatsion yechim Bo'ri personaji bilan bog'liq. Ayrim qo'g'irchoqlarni yasashida ham alohida nafislik, haqiqiy insonga xos qiyofa, chiroy va tabiiylik tamoyillari hanuz tarixiy an'analarga borib taqalishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, "Fotimaning sarguzashtlari"dagi Fotima, "Quloqsiz uloqcha"dagi Chol va hokazo. Aktyorlar ijrosidagi injiq, tanti va erka personajlarning bir-biriga o'xshab qolish holatlari ham yo'q emas. Bu jihatlarda rejissorning talqin doirasi rassomga ham, adabiy asarga ham, aktyorlar jamoasiga ham ta'sir etishi lozim.

Respublika qo'g'irchoq teatrida "Yana Andersen" (Rejissor: D.Yuldasheva, 2002), "Yurt tumori To'maris" (Rejissor: Sh.Yusupov, 2018) kabi spektakllarda ham rejissorlik talqinida yangicha, zamonaviy yondashuvlarni guvohi bo'lish mumkin. Bu voqealar rivoji, qo'g'irchoqlar harakatlanishi va umuman spektakl qiyofasida namoyon bo'ladi.

Teatrdan aynan tayyor materialga ega va tasviriy ifodasi aniq "Qizil shapkacha", "Qarsildoq", "Qor malikasi", "Zolushka", "Dyumchaxon", "Oloviddinning sehrli chirog'i" kabi qator tomoshalarda rejissorning talqini bevosita kuzatuvga olinadi. Tomoshabinda solishtirish, tahlil qilish va munosabat bildirish kayfiyati tug'iladi. Mahoratli rejissor buning uddasidan chiqadi.

Bugungi kunda Respublika qo'g'irchoq teatrida faoliyat yuritayotgan rejissorlar barmoq bilan sanoqli. Sababi, jamiyat, teatr va san'at mutasaddilari qo'g'irchoq teatri rejissorlarini tarbiyalash jarayoniga befarqlik bilan qaramoqda. Shu sababdan, Respublika qo'g'irchoq teatrida har beshta spektaklning uchtagiga D.Yuldasheva

rejissorlik qilmoqda. Endilikda raqobat maydonini yanada kengaytirish hamda zamonaviy fikrlaydigan yoshlar nafasini olib kirish teatr rejissurasi sohasida yangi, kutilmagan talqin va tendensiyalarni yuzaga chiqishi uchun xizmat qilishi mumkin.

Rejissura sohasidagi ijodiy yondashuvlar haqida gap ketganda, bir haqiqatni e'tirof etish joiz. Ijodiy jamoaning boshqa vakillari, qo'g'irchoq ustalari, aktyorlar jamoasi, rassom, musiqa va chiroq ustalari, faqat rejissor chizib bergan doirada qotib qolmasligi, o'z sohalari doirasida individual vazifalarini ado etishlari kerak. Bunda mahoratli ijodiy jamoa rejissorning maqsadiga tezroq olib boradi. Teatrda hamkorlik bevosita san'atning sinkretik xususiyatlarini ta'minlasa-da, ijod tushunchasining o'zi individuallik bilan hamohang ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, rejissorlik san'atida aktyor bilan ishlash muhim o'rin tutadi. Rejissorlik san'ati sahna ijodining mustaqil turi sifatida ajralib chiqquniga qadar, sahnalashtiruvchi vazifasini muallif, yetakchi aktyorlar bajarganligini hech kim inkor eta olmaydi.

Sahna asari g'oyasini, uni sahnalashtirgan rejissor rejasini tomoshabinga namoyish qiladigan, unda fikr, his-hayajon uyg'otadigan zot — aktyordir. Tomoshabin ma'naviy dunyosida o'zgarish yasaydigan aktyorlar faqat sahnada tomosha ko'rsatuvchi kishilargina emas, ayni paytda, ular milliy estetik dunyoqarash targ'ibotchisi hamdirlar. Ular hayotiy muammolarni, zamonasining dolzarb g'oyalarini asar qahramonlari obrazlari orqali bevosita tomoshabinga yetkazadi.

Aktyor garchi yozilgan badiiy asosga hamda rejissorning ko'rsatmalariga amal qilsa-da, ma'lum asardagi obrazni yaratish vazifasini o'z tasavvuridan o'tkazishi, undividual tarzda yondashishi kerak bo'ladi. Aktyorning individiualligi yoki o'z ustida ishlashi quyidagi vazifalarida namoyon bo'ladi:

- pyesa bilan mustaqil tanishib chiqish va tahlil qilish;
- o'z qahramoni bilan tanishish, uning xarakteri va maqsadini aniqlash va uni o'ziga singdira olish;

– qo'g'irchoq teatri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan qo'g'irchoqning texnik jihatlarini o'zida shakllantira olish;

– personajda to'laligicha o'zini tasavvur eta olish;

– adabiy matndagi dialog va monologlarni yod olish va tabiiy ijro me'yorlariga amal qilish va hokazo.

Bu vazifalarni ro'yobga chiqarishda rejissor va aktyor hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Boisi, rejissor o'zidagi salohiyat orqali butun jamoaga ta'sir o'tkaza olishi, aktyorlarning doimiy ravishda o'z ustilarida ishlashi uchun turtki berishi, umuman butun ijodiy guruhni tarbiyalashi lozim. Rejissorlardan buning uchun kuchli dunyoqarash, boy tasavvur, aratorlik, mulohazokorlik, sinchkovlik va yuksak estetik did talab etiladi.

Rejissor va aktyor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etgani holda, ma'lum bo'ladiki, tomosha san'atlarining rivojlanish tamoyillari bugungi kunda asosan rejissorga bog'liq. Repertuarining rang-barang, zamonaviy va qiziqarli bo'lishi uchun rejissorlar mas'ul. So'nggi yillarda Respublika qo'g'irchoq teatri faoliyatidagi spektakllarga M.Ashurova, D.Yo'ldosheva, Sh.Yusupov, F.Xo'jayev va boshqalar rejissorlik qildi. Namlari sanalgan ijodkorlar faoliyatida o'ziga xos talqin ko'zga tashlanadi va aktyorlar jamoasi, umuman ijodiy jamoa bilan ishlashda ma'lum tajribaga ega. Ular spektaklni boshqarish jarayonida aktyorlar qo'g'irchoqlar bilan "gaplashadilar", rejissorlarning o'zlari qo'g'irchoqlarga go'yo jon "ato etish"ni uddalay olishadi va buni aktyorlarga ham erinmay o'rgatishadi. Aslida rejissor aktyorlarga mana shunday ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lishi lozim.

2.2. Qo'g'irchoq teatri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aktyorning obrazga yondashuvi

Aktyorlik sohasini tanlash, bu soha bilan yashash va bundan huzur, halovat, saodat topish har kimga ham nasib etavermaydi. Shu sababdan ham, aktyor sifatida tan olinish va tanlanish ijodkorning qismatiga yozilgan bo'ladi. Bunda xohish va istakning o'zi kamlik qiladi. Aktyorlik sohasinining murakkabligi, minglab yot personajlarning dard-u tashvishlariga o'ralashish haqiqiy ijodkorni aslo cho'chitmaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori boshqa aktyorlik turlaridan farqlanadi. Bunda aktyor emas qo'g'irchoqlar asosiy "plan"ga chiqadi. Bu faoliyat na mashhurlikni, na shuhratni va'da qiladi. Unga faqat kuchli istak, iroda va muhabbat kerak. Qo'g'irchoq teatri aktyorligi sohasini sevmay turib yetuk mutaxassis bo'lish mumkin emas.

Qo'g'irchoq teatri aktyorligi faoliyatida ham boshqa aktyorlar kabi aynan xatti-harakat ustuvorligi va ma'lum obrazni yaratish vazifasi asosiy o'rinni egallaydi. Aktyorning Qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayoni esa shubhasiz, boshqa turdagi aktyorlar faoliyatidan birmuncha farq qiladi. Sababi, qo'g'irchoq teatrida gapira oladigan, harakatlanishi mumkin bo'lgan qahramonlar qo'g'irchoqlardir. Ularga so'z va harakat ulashuvchi vazifa aktyor zimmasiga topshiriladi.

Aktyor o'ziga berilgan personaj obrazini o'zlashtirib barobarida, bu jarayonning ayrim qonuniyatlaridan boxabar bo'lmog'i lozim.

Obraz – (r. so'z bo'lib, obraz yuz, yonoq; tasvir timsol degan ma'nolarni anglatadi) Badiiy asarlarda yaratilgan tip, xarakter. San'atning o'ziga xos bir kategoriyasi: san'atkorning voqelik haqidagi tasavvurining aniq his etiladigan bir tarzda gavdalanishi.

Aktyorlik san'atining oxir oqibat erishishi lozim bo'lgan natijasi – **tabiiy ijod** orqali berilgan **siymo-timsol**(obraz) qiyofasini aks etdirishdan iboratdir.

Qayerdagi badiiy timsol yaratilmas ekan, u yerda san'at haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Biroq aktyorning ijodi ikkilamchi, ya'ni, u ijrochi, xolos. Shuning uchun aktyor, avvalo, birlamchi manba bo'lmish san'at – dramaturg asariga murojaat qiladi. Dramaturg asarida timsol(obraz)lar tavsiya etiladi. To'g'ri, ular hozircha so'zda deydik. Ya'ni, bu timsollar qog'ozdagina mavjud. Agar aktyorni timsolga xos kiyintirib, qo'liga qo'g'irchoq berilsa-yu, u qo'g'irchoq personajiga taaluqli so'zlarni ifodali o'qib bersa, bu obraz yaratildi degani emas. Shunchaki, timsolga yaqinroq deyish mumkin. Bu timsol aktyor tomonidan emas, dramaturg tomonidan yaratilgan qahramon bo'lib qoladi. Bunday timsol yaratuvchi – dramaturgdir. Ammo bunday ifodali o'qishni ko'rgan eshitgan sodda tomoshabin, bu qahramonni aktyor yaratdi, deya hayol qilishi mumkin. Chunki u, shu qahramon orqali ifodalangan badiiylik ta'sirida bo'ladi. Bordi-yu aktyor, o'sha dramaturg yozgan matnni his-hayajon bilan, jarangli ovozda, yana ham ifodalibroq qilib o'qisa va sodda tomoshabin bundan ko'ngli to'lib, uni olqishlasa, bunday havaskor, taqlidchi o'zini «haqiqiy san'atkorman» deb his qiladi.

Aktyorning ma'lum obrazga yondashuvi aynan dramaturgik asosni o'rganishdan boshlanadi. Aktyorlar odatda pyesa va rol ustida ishlash metodidan xabardor bo'ladilar. Ayrim hollarda, aktyor pyesani o'qishi bilanoq, pyesani ichki mohiyatini anglab, shu obrazda yashay boshlaydi. Ammo ko'pincha aktyor, yangi rolga duch kelganda, san'atning butun qiyinchiligini ko'radi. Qanday qilib bu holatdan oson chiqish mumkin? Ishni nimadan boshlasa unumli va maqsadga muvofiq bo'ladi? Birinchi navbatda aktyor spektakl yoki parcha uchun olingan pyesa bilan yaqindan tanishib olishi kerak. Unda nima sodir bo'layotganini, muallifning niyati yoki rejasini, pyesa qahramoni va undagi voqeaga munosabatini, obrazning his-tuyg'usini, xatti-harakatini o'ziniki qilib olishini, ularni o'zining tanasiga, ovoziga ko'chirishni, buni qo'g'irchoq vositasida ifodalashni bilishi kerak. Teatr san'ati - jamoadan iborat. Teatr ishi tashkillashtirilishi lozim. Bir kishining ijodi, boshqa kishining ijodiga bog'liq bo'ladi. Bunday ishlar spektakl yaxlitligiga olib keladi, maqsadga muvofiq

bo'ladi. Aktyor rol ustida ishlaganda, tinimsiz izlanishda bo'ladi. Muallif niyatini bilish uchun, rolni muhokamasi ustida ishlash, pyesani qayta-qayta o'qib, anglab olishga harakat qilish kerak. Ayrim hollarda aktyor ijodiy organikadan aylanib o'tib ketadi. Faqat natijaga tezroq yetib kelish niyatida, rolning tashqi formasiga ega bo'ladi. Ya'ni obraz xarakterini nutq va intonatsiyasini qo'g'irchoqning an'anaviy harakatida ko'rsatadi. Ammo bu bilan jarayonning tabiiyligiga erishib bo'lmaydi. Bunday hollarda aktyor, partnyorning jonli muloqotidan mahrum bo'ladi. Oxir oqibat bu narsa shunchaki taqlidiy san'at tushunchasiga olib keladi.

Bolalar uchun mo'ljallangan pyesalarni o'qish jarayoni oson kechmaydi. Chunki aktyor bolalar ruhiyatidagi ertakona pyesani o'z ko'zi, o'z dunyoqarashi, bugungi kunda yashayotgan inson fikri bilan o'rganishi taqazo etiladi. Obraz aktyor tomonidan mustaqil, yangi, qaytariqsiz, badiiy yahlitlik bilan yaratilishi kerak.

Ayrim hollarda pyesani o'qigandan so'ng, aktyorlar u haqida noto'g'ri talqin, fikr yuritadilar. Pyesani tushunish uchun ba'zan muallif haqida, zamon haqida, bolalarning ichki olami haqida tushunchaga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Aynan yaxshi tanish bo'lgan pyesaga ham, birinchi bor tanishayotganday munosabat bildirilishi kerak va pyesani jamoa bilan o'qish lozim. Rolga obrazli yondashuv aynan aktyorning o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda kechadi va aktyorga ma'lum rolni sharhlash uchun biroz vaqt berish kerak. Boshqacha aytganda, aktyor obrazga xos xulq-atvor va muomalani o'zining emotsional xotirasi bilan jonlantirmas ekan, bo'lajak obrazga o'zining munosabatini aniq bildira olmaydi, boshqalarning fikrini tanqidiy mulohaza qilishga qodir bo'lmaydi. Bunday fikr uni yo'ldan uradi, ijodiy tashabbuskorlikni cho'ktiradi, mustaqil yechim topishda qiynaladi. Mustaqil pyesa materialini qismlarga bo'lib, hal qilishni aktyorning o'ziga qo'yib berish kerak.

Aktyor mustaqil ravishda o'z roliga xos harakat logikasini tuzishlari va uni obraz harakati logikasiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa aktyor sahna voqealarini aniq bilishi, personajlarini ma'lum darajada muallifiga aylanishi talab etiladi. Sababi, qo'g'irchoq teatri aktyorlarining boshqa teatr aktyorlaridan jiddiy

farqi bor. Boshqa teatr aktyorlari hayotda mavjud bo'lgan insonlar, personajlar qiyofasida gavdalanadilar, yaratayotgan obrazlari prototiplariga ega. Ular hech bo'lmaganda real hayotdagi insonlarni kuzatib yoki ongli ravishda tahlil qilib o'zlari uchun material to'plashlari mumkin. Qo'g'irchoq teatri aktyori esa asosan xayoliy, fantastik yoki tasavvur mahsuli bo'lgan obrazlarni yaratadilar. Bu obrazlar favqulodda hayot mantig'iga zid, bo'rttirilgan, yosh va ichki kechinmalarga teskari bo'lishi mumkin. Shu sababdan qo'g'irchoq teatri aktyorining ma'lum obrazga yondashuvi ikki hissa qiyinroq kechishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, qo'g'irchoq teatri aktyori aksariyat hollarda obraziga hissiy kechinma tarzida emas, texnik tarzda yondashishi lozim bo'ladi. Demak, obrazga individuallik faqat aktyorlik iste'dodi emas, balki ma'lum texnik bilim natijasi hamdir, bunga tinimsiz mashqlar natijasida erishiladi. Obrazni tasavvur qilishda aktyor o'zini butunlay unutishi, joiz bo'lsa, personajini butunlay yangi talqinda aks ettirishga intilishi kerak. Ya'ni, ular doim obrazga xarakter berishda o'ziga xoslikni ta'minlashlari zarur. Qo'g'irchoq teatri personajlariga xos bo'lgan xarakterni egallash ichki hissiyotlar orqali va keng tasavvur ta'sirida namoyon bo'ladi.

Aslida, san'atning har bir sohasida tasavvur ayni shu sohaning o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda yuzaga chiqadi. Yozuvchining tasavvuri rassomnikidan yoki bastakornikidan farq qiladi. Aktyor tasavvurining ham boshqalaridan farqi bor. Tasavvurga ega bo'lmagan aktyor hech qachon yaxshi aktyor bo'la olmaydi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrida. Rassom yoki hayokaltarosh o'z tasavvurini o'zidan tashqarida yaratadi, aktyor esa bunday qilolmaydi. Aktyor o'zi yaratayotgan obrazni o'zi vujudida his qiladi va jonlantiradi. Zero yaratayotgan qahramoni hayoti haqida o'ylayotganda uchinchi shaxsda emas, birinchi shaxsda fikrlaydi. Tasavvurida paydo bo'layotgan obraz hayoti bilan qo'shilib ketadi. Aktyorning tasavvurini yosh bolanikiga o'xshatish mumkin. Chunki bolalar o'yin paytida o'zlarini goho shoh, goho malika, goh esa sarkarda, goh qandaydir jonivor deb tasavvur qiladilar va buni juda jiddiy qabul qiladilar.

San'at sohasidagi tasavvur, inson organizmidagi 5 ta sezgining birortasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, rassomda - ko'rish, musiqachida eshitish, haykaltaroshda sezish organlari bilan bog'liq. Aktyorning ijodiy tasavvuri esa 5 ta sezgi organining hammasi qamrab oladi. Lekin qo'g'irchoq aktyoridagi uchun eng asosiy jihatlari bu uning qo'g'irchoq boshqarish mahorati, ovozi, plastikasi va sahnada aniq harakatlanishidir. Qo'g'irchoq teatri aktyori sahnada o'zi yaratayotgan ijodiy asarini o'zi namoyon etishi kerak; u tushuntiradi, yupatadi, qo'rqitadi, kuldiradi va yana qanchadan-qancha badiiy vazifalarni bajaradi. Demak, qo'g'irchoq aktyori aqli-idrokini, irodasini, fantaziyasini ishga solib o'z badiiy tasavvurini qo'g'irchoqlardagi ma'nodor harakatlari orqali ifoda qiladi.

Qo'g'irchoq aktyorlari ma'lum obrazga yondashuvda navbatdagi muhim komponent bu aktyorning xulq-atvoridir. Aktyor bolalar uchun tomosha qo'yish va xayoliy personajni ifoda etish jarayonida o'zidagi xususiy xarakterni ham mana shu jarayonga mutanosib saqlashi lozim. Vaqtida bola sifatida idrok qilishi, vaqtida o'zining jonivor sifatidagi xatti-harakatini boshqarishi kerak bo'ladi. Aktyor teatrga kirib har yangi personajni yaratishi orqali o'zining xulq-atvorida yangi qirrani topa bilishi, go'yo yorug'likni sezadigan plastinkaga o'xshab o'zining xulq-atvorida kichkinagina o'zgarishlarni ham yorita bilishi va uni keyingi obrazlarida qo'llay bilishi lozim. Rolni yangilash uchun yangi ta'sir qiluvchi, qo'zg'atuvchilardan foydalanmasdan, sahnada nima ro'y berayapti, uni ko'rmasdan, bilmasdan, eshitmasdan, o'zining xulq-atvorini bir va oxirgi martagacha qotirib qo'ymoq, jonli intonatsiyalarni saqlab qolmasdan turib jonli obrazni yaratish mumkin emas.

Qo'g'irchoq teatridagi eng muhim jihatlardan biri shuki, qo'g'irchoq teatri aktyori keksayganda yosh bolani, erkak aktyor malikani yoki ayol aktyor bolani o'ynashi mumkin. Shuningdek, bir aktyor bir nechta rollarni ijro etishi mumkin. Topshirilgan vazifani ijodkor sifatida qabul qilish va uni ado etish uchun aktyordan alohida mahorat va tajriba talab etiladi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlarining ma'lum obrazga yondashuvi haqida mulohaza bildirish aynan aktyorlarning o'zlari bilan bo'lgan muloqotlarda namoyon bo'ladi. Ularning quyida keltiriladigan fikrlari orqali nomoyon bo'ladiki, haqiqiy qo'g'irchoqbozlar foniyl dunyoning tashvishlarini qo'g'irchoqlarning sehrli dunyosidan ustun qo'ymaydilar, qo'ya olmaydilar. Uzoq yillik mehnat faoliyatida har bir qo'g'irchoqboz qo'g'irchoqlar olamining sultoniga, ta'bir joiz bo'lsa asiriga aylanadi. Shuning uchun ham hozirda teatrning yetakchi aktyorlari asosan pensiya yoshidagi aktyorlardir. "Ular bu yoshda mahoratning eng kamoliga yetgan pallada bo'ladilar", deydi aktrisa Venera Yusupova. "Xatto o'zim ham teatrga kelgan yosh vaqtimdagidan ko'ra, endi-endi mahorat nimaligini his etayapman. Endigina qo'g'irchoqlarimning xarakterini, tilini aniq tushuna boshlayapman".²¹ Darhaqiqat, qo'g'irchoqbozlar qachonki, o'z qo'g'irchoqlariga oddiy buyum sifatida emas, joni bordek munosabatda bo'lsalar spektaklda ham haqiqiy qo'g'irchoqlar hayotini yaratish mumkin. Bu faqatgina tajribadagina emas, dunyoqarashda, san'atga bo'lgan munosabatda ham bilinadi. Qo'g'irchoqbozlar uchun eng muhim omil bu romantika yoki teatrga bo'lgan muhabbatdir.

Respublika qo'g'irchoq teatrining hozirda tajribali va yetakchi ayrim aktyorlarining qo'g'irchoq teatri borasidagi ayrim fikrlarga e'tibor qaratamiz.

Shermat Jabborov: "Bolalar dunyosini tomosha qilishni, har bir bolaning boshqalarnikiga o'xshamagan harakatlarini kuzatishni yaxshi ko'raman. Lekin, men qo'g'irchoq teatri aktyori bo'laman deb hech ham o'ylamaganman. Birinchi kursda institutni tashlab ketmoqchi bo'lganman. Ikkinchi kursning boshida "Dangasa Dadavoy" spektaklining Nusrat Bobo personajini qo'lga olganimdan keyin hayotimda o'zgarish bo'lgan. Ya'ni, menda qo'g'irchoqbozlik san'atiga nisbatan mehr uyg'ongan. Shundan beri mana shu soha bilan bog'liqman."²²

²¹ "Jannatmakon" jurnali, 2011. 4-son.

²² *O'sha manba.*

Alisher Mirzag'iyosov: "1978 yilda san'at institutining "drama va kino aktyorligi" bo'limiga hujjat topshirganman. Abituriyetlik chog'imizdayoq o'zimizni xuddi aktyorlardek his etardik. Birinchi imtihondan keyin devordagi ro'yhatni qarajak, meni, Shermat Jabborov va Fathulla Xo'jayevlarni "qo'g'irchoq teatri aktyorligiga tavsiya etiladi" deb yozib qo'yishibdi. Noiloj, shu fakultetda o'qiy boshlaganmiz. Lekin ustozimiz T.P. Nikiforovadan olgan saboqlarimiz bizda mana shu sohani yurakdan sevib qolishimizda asosiy rol o'ynagan. Ular "Drama va kino aktyori qo'g'irchoqlarning tilini tushunmaydi ham, ularni o'ynata olmaydi ham. Sizlar esa drama teatri sahnasida ham, kinoda ham bemalol rolga kirishib keta olasizlar", deb ko'p aytardilar. Qo'g'irchoq teatri aktyori bo'lganligimdan hech ham afsuslanmayman".²³

Fathulla Xo'jayev: "Mening bu sohani sevib qolishimga o'qituvchimiz Vladimir Sergeevich Iogelsenning ta'siri kuchli bo'lgan. Hozirgacha u odamni minnatdorlik bilan eslayman. Qo'g'irchoq teatri aktyorida bolalarga xos soddadillik, samimiylik kabi xislatlar muhim sanaladi, agar kasbi qo'g'irchoq teatri bilan bog'liq kishilarda sof ko'ngillik, ishonuvchanlik kabi pokiza tuyg'ular bo'lmasa ularning bolalarga ko'rsatayotgan tomoshalarida ham samimiylik bo'lmaydi. Bolalar esa, kattalar har doim ham his eta olmaydigan nosamimiylikni darrov ilg'aydilar."²⁴

Respublika qo'g'irchoq teatri repertuarida rang-barang spektakllar mavjud va ularning har birini yaralishida aktyorlar jamoasining ma'lum obrazga yondashish tassurotlari bor. Masalan, N.Abbosxonning "Quloqsiz uloqcha" pyesasi asosida yaratilgan spektaklda aktyorlarning obrazga yondashish yuzasidan fikr va mulohazalariga e'tibor qaratamiz.

Asar jajji tomoshabinlarga atalgani uchun voqe'ligi ham oddiygina. Ayyor tulki va bo'rining gapiga kirib, quloqsiz uloqcha o'rmonga borib xatarli holatga tushib

²³ "Jannatmakon" jurnali, 2011. 4-son.

²⁴ *O'sha manba.*

qoladi, vaqtida yetib kelgan Bobojon hamda do'sti quyon uni bu vaziyatdan halos etadilar. Bobosining gapiga quloq solmagan uloqcha qattiq pushaymon bo'ladi.

Bastakor tomonidan yozilgan qo'shiq va kuylar, rassom yaratgan yorqin dekoratsiya hamda qo'g'irchoqlar, aktyorlarning ta'sirchan ijrolari jazzi tomoshabinlarni, albatta befarq qoldirmaydi.

Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolajonlarga va boshlang'ich sinf o'quvchilarlariga mo'ljallangan mazkur tomoshada sahnalashtiruvchi rejissor X.Axunov, sahnalashtiruvchi rassom M.Ro'zmetova va bastakor A.Ikromov. Spektaklda Bobojon rovida O.Isoqov, Uloqcha rovida D.Shermatova, Bo'ri rovida S.Jo'rayev, Tulki rovida L.Azimova, Quyon rovida Sh.Ishmuhamedova kabi aktyorlar gavdalanadi. Ahamiyatli jihati, bu aktyorlar jamoasi ham o'zbek, ham rus tilidagi spektakllarda rol ijro etadilar.

Aktyorlar jamoasi bergan ma'lumotlarga qaraganda, ular qo'g'irchoq teatri xususiyatlariga mos ravishda, tomoshabin tasavvuri va o'zlarining aktyorlik imkoniyatlari asosida pyesani qayta ishlashadi. Ular asar bo'yicha o'zlarining mulohazalarini erkin bildiradilar va shu orqali asarning g'oyasi, maqsadi va mohiyatini teran anglaydilar.

Shunday qilib, obrazning ikki qiyofasi mavjud:

Birinchisi, aynan tashqi qiyofa bo'lib, bu qaysidir jonivor bo'lishi mumkin. Masalan, Uloqcha. Aktyor Uloqchanning harakatlanishi, jonivor sifatidagi xususiyatlarini o'z tasavvuridan o'tkazadi. U to'rt oyoqlab yuradi, biroz qo'rqqoq, sho'x, o'yinqaro va hokazo. Mana shu xususiyatlardan kelib chiqib unga ovoz beradi.

Ikkinchisi, mana shu qiyofadagi asl personaj, ya'ni, ichki qiyofa. Avval aytganimizdek, teatrdagi personajlar asosida aslida insonlar, insonga xos munosabatlar va insonga xos xarakter mujassam bo'ladi. Uloqcha personaji kichik yoshdagi bolakayga xos xususiyatga ega. 40 yoshlar atrofidagi aktrisa D.Shermatova atiga 4-5 yoshdagi bolakay obrazini yaratish uchun aynan mana shu bolalardek fikrlat olishi kerak va bu tasavvur ana shunday bolalarni kuzatish asnosida shakllanadi.

“Men avval personajning kechinmalarini o’zimdagi his etaman va uni qo’g’irchoqqa o’tkazishga harakat qilaman, bu nafaqat hissiy jarayon, balki intellektual faoliyatdir” deydi aktrisaning o’zi.

Aynan, har bir aktyor individual o’z personajlarini shakllantirgandan so’ng, jamoaviy tarzda, musiqa va dekoratsiya, chiroqlar va partnyorlar bilan ishlashni boshlaydilar. Mazkur spektaklning to’liq tayyor bo’lishi uchun uch oyga yaqin vaqt sarflangan. Mana shu vaqt mobaynida butun ijodiy jamoa yagona maqsad – spektakl yaratish uchun mehnat qilganlar.

Bir so’z bilan aytganda, qo’g’irchoq teatri aktyorining ma’lum obrazga yondashuvi uning muhabbatidan boshlanib, pyesa mohiyatini anglashi, mahorat nuqtai nazaridan (nutq, plastika, tezkorlik, ovoz) o’z ustida ishlashi, personajni mustaqil tarzda sharhlashi, tomoshabin tasavvuri darajasida fikrlay olishi, doimiy ravishda aktyorlik dunyoqarashini shakllantirib borishi, qo’g’irchoq boshqarish borasida tinimsiz mashq qilishi, o’zlashtirilgan tajribalar asosida repetitsiyalarda ishtirok etishi bilan davom etadi hamda o’zi yaratgan obrazga tanqidiy-tahliliy ko’z bilan qaray olish va baholash bilan yakunlanadi. Mana shu nuqtada spektakl dunyoga keladi va tomoshabin uchun havola etiladi.

III BOB. Respublika qo'g'irchoq teatrida repertuar masalasi

3.1. Qo'g'irchoq teatri uchun maxsus yozilgan dramatik asarlarda talqin masalasi

Teatr – ma'naviyat ko'zgusi. Madaniyatning uzviy qismi bo'lgan teatr chinakam tarbiya o'chog'idir. Unda avvalo, millat taqdiri, inson hayoti, yurt qayg'usi va shodligi o'z aksini topadi. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, bu maqsadga erishishda teatr san'atining o'rni alohida. Chunki teatr insonlarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Darhaqiqat, teatr tarbiya o'chog'i bo'lib, u insonlardagi salbiy xususiyatlarni, kamchilik va xatolarni ko'rsatib, yaxshi va yomonni, oq-qorani ajratishga o'rgatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning to'qqizta viloyatida qo'g'irchoq teatri mavjud. Bu teatrlarni tashkil etishda Toshkentdagi Respublika qo'g'irchoq teatri jamoasi va hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi" kafedrasini yetakchilik qilgan.

Har qanday teatrning tarixi, uning rivojlanish yo'li va erishgan yutuqlari zahirida repertuar tizimining o'rni alohida e'tirof etilishi kerak. Respublika qo'g'irchoq teatri tarixi va joriy repertuarini tahlil qilish orqali ayrim masalalar aniqlandi.

Teatrda yillar davomida o'ziga xos tomoshalar tizimi shakllangan. Aynan bu tomoshalarni shakl xususiyatiga ko'ra bir necha turga ajratish mumkin:

- spektakllar;
- bayram dasturlari;
- teatrlashtirilgan dasturlar.

Mazkur spektakl va tomoshalarning dramaturgik asoslari mohiyatan quyidagi ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh:

- mahalliy mualliflarning dramaturgik asarlari;

- mahalliy mualliflarning badiiy asarlari inssenirovkalari;
- milliy xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan asarlar;

Ikkinchi guruh:

- jahon mualliflarining dramaturgik asarlari;
- jahon mualliflarining badiiy asarlari inssenirovkalari;
- jahon xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan asarlar.

Bu spektakllar esa o‘z o‘rnida turli yosh darajasidagi tomoshabinlar uchun taqdim etiladi:

- maktabgacha ta’lim muassasalari yoshidagi bolalar;
- maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari;
- maktabning yuqori sinf o‘quvchilari.

Teatr ostonasidan qadam tashlagan tomoshabin qalbida katarsis yoki o‘ziga xos estetik zavqqa ehtiyoj paydo bo‘ladi. Mana shu ehtiyojni qondirish teatr jamoasining vazifasidir. Shu sababdan, teatr jamoasida ustuvor vazifa repertuarni shakllantirilishiga qaratiladi.

Repertuar [*fr.* repertoire < *lot.* repertorium – ro‘yxat, ma’lumotnoma] Turli teatr, konsertlarda yoki ayrim xonanda tomonidan muayyan davr mobaynida ijro etiladigan asarlar majmui.²⁵

Repertuar o‘z o‘rnida teatrning tomoshabin uchun mo‘ljallangan “menyu”si hisoblanadi. Tomoshabin ta’bidan kelib chiqib, ham “mazali”, ham “foydali” spektakl tayyorlash teatr “oshpaz”larining vazifasidir.

Repertuarni ma’lum darajada shakllantirish teatr jamoasida direktor, adabiy emakdosh, bosh rejissor va mahalliy dramaturglarga bog‘liq. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Teatr – tarbiya maskani. Yoshlarimizni turli mafkuraviy tahdidlar va g‘araz niyatli kuchlardan, ta’sirlardan asrab-avaylashga usiuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda pand-nasihat

²⁵ *Elektron resurs.* O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Ezgulikni, yurtparvarlikni, insoniy fazilatlarni kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri teatrdir".²⁶

Teatr mana shu o'tgan yillar davomida o'z repertuarini imkon qadar rang-barang ko'rinishda boyitishga harakat qildi. Repertuarining asosi – dramaturgiya. Teatr san'atini shu bois ham dramaturgiyadan ayro holda tasavvur qilish qiyin. Chunki, teatr spektakl vositasi orqali namoyon bo'lsa, spektakl yahlit pyesa asosida yuzaga chiqadi. Adabiyotning murakkab janri bo'lgan dramaturgiyada qalam tebratish ham zavqli, ham mashaqqatli. Ana shu o'zgacha zavqni tuyib, uning mashaqqatli sinovlaridan metin iroda bilan o'ta olganlar dramaturg deb qadrlanadi.

Bolalar dramaturgiyasi o'z o'rnida rivojlanishi kutilayotgan va zarur bo'lgan soha hisoblanadi. Teatr jamoasi bu muammoni baholi qudrat bartaraf etish yo'lida o'ziga xos izlanishlar olib borishda davom etyapti. Teatrning tarixiy faoliyatida xususan, so'nggi 2010-2017 yillar davomida bolalar teatrining bir qancha namunalari yaratildi. Ular orasida aynan sahna uchun mo'ljallab yozilgan dramaturgik asarlarda rang-barang yondashuv, mualliflarning o'ziga xos talqinini guvohi bo'lish mumkin. Lekin asar mualliflariga e'tibor qaratilganda, ko'zni quvnatadigan holat kuzatilmaydi.

Teatrda sahna uchun mo'ljallangan asarlarni sahnalashtirish jarayoni alohida e'tirofqa arzimaydi. Sababi, qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasidagi muammolar hal etilish o'rniga yanada murakkablashib bormoqda. Mahalliy mualliflarning qo'g'irchoq teatri janrida asar yaratmayotgani, yaratilayotgan asarlarning teatr talablariga mos emasligi, muammoning yildan yilga keng tus olishi bugungi vaziyatni taqazo etyapti. Teatr repertuari esa avval tajribadan o'tgan mashhur asarlar, o'zbek va jahon ertaklari insseniroykalari hisobiga to'ldirilmoqda. To'g'ri, butunlay dramaturgik asarlar yo'q deya olmaymiz. Teatr jamoasi bor shart-sharoitda

²⁶ Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 30-avgustda "Buxoro madaniy markazi" majmuidagi viloyat musiqali drama teatri ochilishidagi ma'ruzasidan.

dramaturgiyani butunlay chetga surib qo'ygani yoq. Tanlangan asarlarda o'ziga xos dramaturgik talqin ham yo'q emas.

I.Lukyanova, D.Yuldasheva muallifligidagi «Karvonsaroy» spektakli sahnalashtirilganiga 28 yil bo'ldi. Biroq hanuz asar teatr repertuarida o'zining o'rnini saqlab kelmoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist I.Yakubov tomonidan sahnalashtirilgan tomosha 1 soat-u 10 daqiqa davom etadi.

“Karvonsaroy” o'zbek xalq tomosha san'ati asosida sahnalashtirilgan qo'g'irchoq tomoshasi bo'lib, voqealar zamonaviy til va zamonaviy teatr vositalari yordamida ifoda etiladi. Karvonsaroy nomini o'zi ham tarixiy haqiqatlar bilan bog'liq bo'lib, Hindiston va Misr, Eron va Xitoy tomonlarga karvon surgan sayohatchilar va savdogarlar dam olish uchun to'xtagan mehmonxonalarini shunday atashgan. Asarda Karvonsaroyga quyidagi ta'rif keltiriladi:

“Bizning karvonsaroyimiz

Butun Ipak yo'liga mashhurdir.

Bu yerdan istagan joyingizga

Borishingiz mumkindir...”

Quvnoq qiziqchilar Ali bilan Vali tomoshabinlarni qadimgi o'zbek qo'g'irchoq san'ati tarixi bo'ylab safarga chorlaydi. Spektakl faqatgina ikki aktyor yordamida o'ynaladi, ularning mahorati orqali tomoshabin an'anaviy qo'g'irchoq san'atining turli ko'rinishlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qo'lqopli va trostli qo'g'irchoqlar eshakni sotish hamda xo'rozlar jangi sahnalarida belbog'li va oddiy shirmalar ortida jonlanadi. Marionetka-qo'g'irchoq esa buxorochocha sho'x raqsga tushadi. Soya teatri turli shahar va mamlakatlar bo'ylab safar qilgandek tasavvur uyg'otadi. Mazkur spektaklning uzoq yillar davomida yashab kelayotganini sababi ham asarning aynan ikki aktyor ijrosiga qurilgani, shu orqali milliy an'analar, qadriyatlar tarannum etilgani, tomosha vositasida qo'g'irchoq teatrining qator shakl va imkoniyatlaridan foydalanilgani ijodkorlarning, xususan dramaturglarning o'ziga xos talqini bo'lib xizmat qilgan. Bunday mazmundagi spektakllar orqali bolalar

tasavvurida milliy tarix va mentalitetga hurmat, o'tmishimiz haqida turli ma'lumotlar berish mumkin. Ma'lum bo'ladiki, aynan tomosha ikki maqsadda tomoshabinga uzatiladi:

1. Didaktik ta'sir o'tkazish (odob-axloq va ezgulik me'yorlari);
2. Axborot uzatish (tarix, xalq, madaniyat, millat xususida turli ma'lumotlar ifodasi).

Aka-uka Grimm ertaklari motivlari asosida Y.Speranskiy tomonidan yozilgan «G'aroyib musobaqa» asari haqida esa biroz boshqacharoq fikr bildirish mumkin. Mazkur asarning spektakliga ham O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist I.Yakubov rejissorlik qilgan va bu asarning ham yoshi 28 da. Spektakl 50 daqiqa davom etadi.

Ushbu g'aroyib ertakning qahramonlari uchta: Tiptatikan, Tiptatikanxonim, Quyon, shuningdek, sahnada boshlovchi ham gavdalanadi. Asar maqtanchoq Quyon haqida bo'lib, bunday illatning oqibatlari xususida so'z boradi.

Quyon Tiptatikan bilan bahslashib, kim tez yugurish bo'yicha musobaqa o'tkazishadi. Men qayerdaman-u, Tiptatikan qayerda, deb o'ylagan Quyon hech qanday qiyinchiliksiz g'alaba qozonishiga shubha qilmay, Tiptatikanga avvaldan karamli pirog pishirishni buyuradi. Lekin Quyon aytganday bulmaydi, Tiptatikan ayyorroq chiqib qoladi va o'yinda g'olib bo'ladi. Ikki Tiptatikan va maqtanchoq Quyon o'rtasidagi musobaqa sahnada ajabtovur va rang-barang voqealarni kasb etadi. Bu sujet juda mashhur, uning multfilm variantlari ham mavjud. Asar o'z davrida katta shuhrat qozonganiga shubha yo'q. Teatrda ham tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinadi.

Asardagi g'oya maqtanchoqlikning qoralanishi bilan bog'liq, zehn va ayyorlik orqali maqtanchoqlar jazosini berish an'anasi faqat mana shu asarga xos xususiyat emas. Yillar sinovidan o'tganligi bois bu asar xolis tarzda ijobiy baholanishi mumkin. Lekin ko'p bora bir xil ohangdagi asarlarga murojaat etish, tasviriy va badiiy ifodasiga ega tomoshalarni sahnalashtirishda me'yorga e'tibor bermaslik ijodkorlarni dangasa qilib qo'yishi, tomoshabinni teatrdan uzoqlashtirishi mumkin. Teatr chin

ma'noda ijodiy yangiliklar, zamonaviy talqin va yangi kashfiyotlardan cho'chimasligi kerak.

S.Mixalkov pyesasi asosida sahnalashtirilgan "Uch quvnoq cho'chqacha" tomoshasi ham bolalar uchun begona emas. Asarga F.Xo'jayev rejissorlik qilgan. Bu asarda dramaturgning o'ziga xos talqini voqealarning favqulodda qiziq, o'ziga yarasha konflikt asosiga qurilgani bilan o'lchanadi. Avval sinovdan o'tgan tomoshalarda ko'proq rejissor talqini muhim hisoblanadi. Deylik, bu tomoshada sahna uchun yozilganlik xususiyati bevosita bolalar bilan muloqotda ko'rinadi. Bu muloqot asarning boshlanishidan yuzaga keladi:

"Nima ko'rsatsak ekan tomoshabinlarimizga?... Topdik! Kelinglar, hammamizga tanish bo'lgan uch cho'chqacha to'g'risidagi ertakni aytib beramiz. Bor ekan-da,yo'q ekan, uch cho'chqacha bo'lgan ekan. Uchchala aka-ukalar bir xil bo'y-bastli, dumaloqqina, pushtirang, dumchalari bir xil, quvnoqqina, hattoki, ismlari ham bir-birlariga o'xshash: Nif – Nif, Naf – Naf, Nuf – Nuf ekan..."

Ertak aytish uslubi bevosita muloqotni yuzaga keltirishi tabiiy, albatta. Voqealar rivojida bu do'mboq cho'chqachalarga safar jamadonlarida yashagunlaricha hech qanday xavf yo'q edi, hech nima sodir ham bo'lmayotgan edi. Ular yam-yashil o'tloqqa ko'chib o'tganlaridan so'ng, hayotlari sarguzashtga aylandi. Avvaliga alohida yashashni ma'qul ko'rgan do'mboqchalar Bo'ri ularga xavf solgandan keyin unga yem bo'lmaslik uchun birdamlik zarurligini anglab yetadilar. Tomoshadagi asosiy g'oya aynan birdamlik bo'lib, bu g'oya talqini tomoshabop sujet asosida o'z aksini topgan.

Bu spektaklning premyerasi 2007-yilning mart oyida bo'lib o'tgan. Spektakl 50 daqiqa davom etadi.

Buyurtma asosida yozilgan mahalliy dramaturg E.Xushvaqtovning «Cho'pqa'g'irchoq» (2007) tomoshasi ham F.Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilgan. 10 yoshga to'lgan spektakl 55 daqiqa davom etadi. Bu tomoshadagi dramaturgik talqin ham aynan ertak ruhiyati bilan bog'liqlik asosida yuzaga keladi.

Asar aynan “Bor ekan-da, yo‘q ekan... Bir qizcha bo‘lgan ekan. Uning buvisi har kuni uxlashidan oldin ertak aytib berar ekan. Kichkina, shinamgina hovli, soyali daraxt tagida so‘ri. Odatiy o‘zbek hovlisi...” deb boshlanadi. Voqealar davomida qizcha sehrlil tush ko‘radi. Voqealar aynan tushda sodir bo‘ladi. Unda yovuzlikka qarshi kurashishga to‘g‘ri keladi. Tushidagi kurash va voqealar orqali yon-atrofidagilarni, yaqinlarini, ezgulikni, do‘stlikni qadrlash naqadar muhimligini juda yaxshi tushunib yetadi. Ilk quyosh nurlari tushishi bilan qo‘rqinchli tushi yo‘qoladi. Uyqudan uyg‘onganda hovli, soyali so‘rini, sevimli o‘yinchoqlari va buvisi yasab bergan cho‘p qo‘g‘irchoqni ko‘rib sevinib ketadi.

Ertaklarni eshitish, o‘qish, tomosha qilish albatta, har qanday bola uchun qiziq va maroqli. Lekin aynan ertakning o‘zida ishtirok etish butunlay boshqacha taassurot uyg‘otishi tabiiy hol. Shu asosda, mazkur asar dramaturgiyasida o‘ziga xoslik seziladi.

Dramaturgik asarlardagi muallif talqini nafaqat yangi asar yaratish, balki ma‘lum turdagi mashhur motivlarni rivojlantirishda ham o‘z aksini topadi. Masalan teatrdagi «Qizil qalpoqcha» (2008) spektakli. Pyesa muallifi va sahnalashtiruvchi rejissyor – D.Yuldasheva. Maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan mashhur ertakni ertakchilar Sharl Perro va aka-uka Grimmlar yozishganidan hammaning xabari bor. Turli millat onalari mard qizaloq haqidagi ushbu ertakni har xil talqin etishgan. Qadim-qadim zamonlarda yaralgan ertak, “Internet” zamoniga qadar yetib keldi. Bu ertakda butunlay boshqa hikoyani aytib beriladi. Unda Bo‘ri hech kimni yemaydi. Aksincha, buvi va uning nabirasi Bo‘rivoyni tarbiya qilishadi, bu ishda ularga ajoyib xulq-atvorli Ukki va oddiy qarg‘a yordam beradilar.

Bu talqin muallifning tasavvuri va ijodiy imkoniyatlari mahsuli. Bunday tomoshalar bolalar uchun ham qiziq tuyulishi tabiiy, albatta.

E.Chepovetskiy asari asosida D.Yuldasheva tomonidan sahnalashtirilgan “Quvnoq sichqoncha” (2015) asari esa teatrdan mazmunan ko‘p takrorlanmaydigan o‘ziga xos g‘oyaviy talqinga ega tomosha hisoblanadi. Spektaklning bosh qahramoni

kulrang tusdagi quvnoq sichqoncha Mitsik Marina xolaning uyida yashaydi. Uning xayolida bu uy unga tegishli, shuning uchun, bu yerda xohlaganini qilib o'zini erkin his qiladi. Bu esa uy egasi Marina xolaning tinchini buzadi. Ayniqsa, unga qadrli bo'lgan bufetni u kemirib teshib qo'yganida Marina xolaning fig'oni falakka ko'tariladi. Undan qutilish uchun qopqon qo'yadi, mushuk olib kelib uning ta'zirini bermoqchi bo'ladi. Tomosha orqali inson va jonivorlar o'rtasidagi munosabatlar ko'rsatiladi. Shu sababdan tomoshada aynan insonlar o'zlarining tabiiy ko'rinishida va jonivorlar qo'g'irchoq qiyofasida gavdalanadi. Tomosha orqali bolalar ruhiyatida tabiatga, jonivorga mehr uyg'otish, ularga ozor bermaslik g'oyasi ilgari suriladi. Asarda kuy qo'shiq, raqslar va musiqiy chiqishlardan o'rinli foydalanilgan:

Yashash qandayin zavqli,

Ham zavqli, ham maroqli.

Gar yoningda umrbod,

Yashab tursa bir jonzot.

Xullas, bolalar tomoshadan "Odamlar yon atrofdagi jonzotlarga zarar yetkazmasdan, ularga doimo mehr-oqibat ko'rsatib yashashlari lozim", degan haqiqat bilan chiqadilar.

Joriy yilning 10 may kunida To'ra Mirzo qalamiga mansub "Yurt tumori Tumaris" deb nomlangan spektakl namoyishi bo'lib o'tdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shomurod Yusupov tomonidan sahnalashtirilgan mazkur tomosha tariximizning oltin zarvaraqlaridan joy olgan o'zining jasorati, mardligi va oqilaligi bilan millatning g'ururi va iftixoriga aylangan To'maris haqidagi tarixiy sahna asaridir. Bu asar zamirida yurtga sadoqat, erk yo'lida jonni fido qilish, sevgiga vafodorlik g'oyasi yotadi. Spektaklda insoniy fazilatlaridan yiroqlashgan razil, sotqin, hoin shaxslarning hufyona, ortdan ish ko'rishlaridan g'azablansak, murakkab bir davrda yurt kelajagi va ravnaqi yo'lida mardonavor kurashgan matonat timsoliga aylangan To'maris qalblarimizda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Spektakl 12 yoshdan

kattalar uchun mo'ljallangan. Aynan bu turdagi tarixiy ahamiyatga ega asarlar orqali bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin.

Dramaturgik asarning talqinini belgilovchi tushunchalar nuqtai nazaridan tahliliy munosabat bildiradigan bo'lsak, qo'g'irchoq teatrlari uchun maxsus yozilgan asarlardagi mavzu va g'oyaviylik tarbiyaviy, didaktik, tarixiy yo'nalishlarda ifodasini topmoqda.

Mavzu va g'oyani ochishdagi o'ziga xos sujet esa aynan mashhur motivlarga borib taqalishi, yangi ijodiy qarashlarning, yangi nafas va zamonaviy voqealarning Respublika qo'g'irchoq teatri repertuarida u qadar katta o'rin egallamaganligi ma'lum bo'ldi. Teatr yangidan-yangi dramaturgik asarlarga muhtojligi inkor etib bo'lmas haqiqat.

Asardagi personajlar borasida asosan mashhur asarlardagi taniqli qahramonlar, o'rmon jonivorlari, o'rtamiyona odamlar obrazlari namoyon bo'lmoqda. Yangidan-yangi qahramonlar yaratish, yangicha personajlarni sahnada jonlantirish tajribasi deyarli sezilmayapti. Bu ham aslida dramaturgik asarlar talqinida o'z ifodasini topishi kerak edi.

Asardagi badiiy yechimlar esa asosan rejissor, aktyor, rassom va kompozitor "hashari" vositasida amalga oshirilmoqda. Yuksak badiiy yechimga ega asarlar kam. "Yurt tumori To'maris" asarida o'ziga xos badiiy yechimlar borligini inobatga olib qo'yamiz.

Asardagi kompozitsion yondashuvlar odatda ikki kuchning o'zaro to'qnashuvi, ular o'rtasida konfliktning yuzaga kelishi, kurash va ezgulik g'alabasi, bolalarning bu voqealarga munosabati bilan yakun topadi. Ijod chegara bilmas serqirralikka monand bo'lgan bir vaziyatda o'zini oqlaydigan kompozitsion yondashuvlarga qo'l urish mumkin. Biroq, bot-bot takrorlanayotgan muammo, dramaturgiyaning bunda oqsoqlanayotgani, umuman, bolalar dramaturgiyasidagi kadrlarning yetishmasligi, borlarini esa qadrlanmasligi oqibatida teatrlar, xususan, Respublika qo'g'irchoq teatri o'zga millat dramaturglarining asarlari orqali "o'zini qutqarib kelmoqda".

3.2. Inssenirovka qilingan spektakllarda aktyorlik namunalari

Teatr san'ati asosi ham bevosita adabiyot bilan bog'liq holda kechadi. Zotan dramaturgiyaning o'zi adabiyotning bir bo'lagi. Azal-azaldan esa bolalar adabiyoti o'zining yorqin qiyofasi, jozibadorligi va bolalar uchun ta'sir doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ertaklar olami, ulardagi sarguzashtlar, seyr-joduga asoslangan, xayoliy-fantastik voqealar, ran barang personajlar bolalarni befarq qoldirmaydi. Shu asosda, bolalar teatrini ertaklar va bolalar adabiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Respublika qo'g'irchoq teatrlari ham bu borada qator tajribaviy ijod namunalari yaratmoqda va ular teatrning tomoshaviyligida va repertuarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Odatda bolalar adabiyoti namunalari, xalq ertaklari inssenirovka orqali sahnaga ko'chadi. Inssenirovka tushunchasi esa teatrning muhim komponentlaridan biriga aylangan. Chunki doim dramaturgiya sohasidagi kamchiliklar inssenirovka orqali yashiriladi.

Inssenirovka (lot. in — da, scaena — sahna) — adabiy asar (roman, qissa, doston, hikoya) ning sahna, televideniye, radio uchun qayta ishlanishi. Dastlab, inssenirovka XIX-XX asrlarda Yevropada vujudga keldi va taraqqiy etdi. O'zbekistonda inssenirovkaning ilk namunalari XX asr boshlarida yaratildi, 20-80-yillarda rivojlandi. Agar inssenirovka asl nusxasidan tubdan farq qilsa, muayyan asar motivlari asosida yozilgan mustaqil pyesa hisoblanadi.

Inssenirovkada dramatik janr xususiyatlari hisobga olinadi, xususan, qahramonlar obrazini asosan dialog yordamida ochib berish, kuchli hayotiy ziddiyatlarni ko'rsatish va yorqin siymolarni namoyon etishga e'tibor beriladi. Shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega materiallarni sahna uchun adabiy jihatdan qayta ishlash ham inssenirovka deyiladi.

Respublika qo'g'irchoq teatri ijodiy jamoasi inssenirovkaning qator namunalari yaratishda ma'lum tajribaga ega.

Xususan, “Ur, to’qmoq”, “Oltin tarvuz”, “Zumrad va Qimmat”, “No’xot polvon”, “Qizil shapkacha”, “Qarsildoq”, “Qor malikasi”, “Zolushka”, “Dyumchaxon”, “Oloviddinning sehrli chirog’i” kabi qator tomoshalar adabiy asosi aynan bolalar adabiyotidir.

Teatr jamoasi uchun xalq ertaklari va adabiy asarlar bilan ishlash birmuncha mas’uliyat tug’dirishi tabiiy. Sababi, badiiy asos bilan tomoshabin tanish bo’ladi va uning sahnaviy talqiniga tahliliy ko’z bilan qaraydi. Ayniqsa, tomoshada aktyorlik namunalari assosiy diqqatni tortadi. Aksariyat ertaklarning tajribadan o’tgan sahna va ekran talqinlari bo’ladi. Bu holat yo tomoshaning tomoshaviyligini yoki muvaffaqiyatsizligini belgilab berishi mumkin.

Respublika qo’g’irchoq teatrida sahnalashtirilgan inssenirovka asarlarning ayrimlariga e’tibor qaratish o’rinli.

Latviya xalq ertaklari asosidagi (V.Pavlovskiy inssenirovkasi, 1996) «No’xat bola» tomoshasi ham o’ziga xos darajadagi aktyorlik namunasini yuzaga keltirgan asar hisoblanadi. Tomoshada ezgulik va hosildorlik ramzi bo’lgan sehrgar Layma gavdalanadi. U haqida juda ko’p xalq qo’shiqlari mavjud. Ulardan biri:

Paydo bo’lsa sehrli Layma,
Ezgulikka to’lar odamlar.
Ko’p sahiydir mehribon Layma,
Bog’u rog’day yashnaydi olam.

Tomoshada voqeaga ko’ra, bir g’aribona kulbada chol yashaydi. U farzandlari bo’lishini orzu qiladi. Sehrgar Layma unga yordam qilib, unga No’xat bolani in’om etadi. No’xat bola juda quvnoq, jasur bo’lib o’sadi, u hatto dahshatli mahluqni yengib, makkor yolg’izni yer tishlatib, go’zal malikani ozod etadi. Keyin ular to’y qilishadi, murod maqsadlariga yetishishadi.

Sahnalashtiruvchi rejissor O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi Sh.Yusupov, sahnalashtiruvchi rassom O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi V.Akudin, bastakor O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi

A.Ikromov. Bu spektakl 1996 yil 31 oktabr kuni bo'lib o'tgan. U 1 soat 10 daqiqa davom etadi.

Ulug' ertakchi Gans Xristian Andersenning "Gugurt sotuvchi qiz" ertagi asosida sahnalashtirilgan "Yana Andersen" spektakli (D.Yuldasheva insseniroykasi, 2002) ham badiiy yahlit ahamiyatdagi mukammal sahna asari sifatida e'tirof etilgan. Gugurt sotib yurgan qizning fojeasi va ruhiy ozodligi butunlay yangicha qiyofada, poetik boyitilgan holda namoyon bo'ladi.

Ayni Yangi yil oldidan bechora qizcha o'gay ota qistovi bilan gugurt sotishga majbur bo'ladi. Lekin undan hech kim gugurt harid qilmaydi, chunki barcha issiqqina uylariga, Yangi yil bayramini nishonlashga shoshilayotgan edi. Och qolib, sovuq qotgan qizcha uygaqaytish va otasidan dakki eshitishdan qo'rqib ko'chada qoladi. Har bir gugurt yoqilganida esa uning yuksak orzularini ifodalovchi G'oz, Archa, Pechka, Qor odamcha personajlari ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Bu personajlar do'stlik, mehr, bayram va hattoki onasining timsoli vazifasini bajaradi. Nihoyat, onasi uni o'zi bilan osmonga olib ketadi. "Chunki u yerda na ochlik, na sovuqva na qo'rquv bor!" Shunday qilib, sovuqqotgan qizcha mitti olov yorug'ida jon beradi.

Mazkur ta'sirli asar tomoshabinda juda katta taassurot qoldiradi. Spektakl shakli bevosita aktyorlik namunasini yuzaga chiqarishdagi texnik omil sanaladi. Masalan, tomoshadagi Qor odamcha (R.Ergashev, N.Kiselova), Pechka (N.Kiselova, R.Ergashev), vaysaqi odam xarakteriga ega G'oz (Y.Shibkov, R.Ergashev, N.Kiselova) va yasatilgan Archa kutilmagan holda yaltiroq temir patnos ustida paydo bo'ladi. Ular jonli, qiziqarli muloqotdan, ashulalar va raqslardan so'ng g'oyib bo'lishadi.

Bu spektaklda G'oz obrazi markaziy bo'lmasa-da, lekin eng yahlit, eng jonli va tomoshabinlarda eng ko'p zavq uyg'tuvchilardan biridir. G'ozni uch aktyor "qora kabinet" uslubida o'zlari ko'rinmagan holda jonlantiradi. G'oz

ashulani avjiga chiqqan paytda shartli – majoziy tarzda ilhomlanib tepaga uchib, keyin bo'lak-bo'lak bo'lib yerga qo'nadi. Aktyorlar mohirona talqinida G'oz ikki qanotini (aktyor R.Ergashevni oq perchatkalari kiyilgan chaqqon ikki kaftlari) yoyib uchadi. Birdaniga bir qanoti tepadan tanasidan bo'linib alohida pastga tushib ketadi. G'oz g'yoki bir qanotiga osilganicha tepada (havoda) osilib qoladi. Tushib ketgan birinchi qanot – “kaft” kutilmagan holda yana alohida tepaga uchadi. Qanot G'ozning bo'ynini hip etib ushlab, bo'g'izlagandek bo'ladi. G'ozning boshi va ikkinchi qanotisiz tanasi pastga tushib ketadi. Tepada qolib ketgan bir qanot yengil pat yoki yaproq kabi aylana-ayalana pastga uchib tushadi. Bu G'ozni pontamimik xarakterga ega uchishi va bo'laklanishi, pastdan yasatilgan go'zal Archaning g'oyibona paydo bo'lishi va girlyandalar ustida Qizchaning (V.Yusupova, G.Prokofeva, N.Danilova) raqsga tushishi tasodifiy, sehrli effektga egaligi bilan tomoshabinlarning barcha toifasini hayratda qoldiradi.

Umuman spektakldagi badiiy yahlitlik har bir ijodiy guruh a'zosining o'z vazifasiga mohirona yondashuvi, chin dildan ishlashi bilan o'lchanadi. Biroq, ularning mehnatini yuzaga chiqargan asosiy kuch aktyorlar bo'ldi. M.Qodirov ta'biri bilan aytganda, “hamma ishni birinchi galda qo'g'irchoq hal qildi” va albatta, “qanday bo'lmasin, qo'g'irchoq teatrining spetsifikasi, o'ziga xos tabiati borligi”²⁷ ham hal qildi.

Sahnalashtiruvchi rejissor D.Yuldasheva, sahnalashtiruvchi rassom - S.Seduxin, bastakor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi A.Ikromov, asar premyerasi 2002 yil may oyida bo'lib o'tgan va spektakl 40 daqiqa davom etadi.

Mashhur arab xalq ertaklaridan biri bo'lgan “Oloviddinning sehrli chirog'i” (A.Chuprin insseniroykasi, 2009) spektakli teatr repertuarida alohida o'rin egallagan.

²⁷ Qodirov M. “Mustaqillik yillarida qo'g'irchoq teatrining faoliyati”. Teatr jurnali, 2004, №1, 21-bet.

Mumtoz ertak barchamizga bolalikdan tanish va qadrlil. Ertakda arab zaminining olovrang sahrolaridan esayotgan shamollar malika Budur va oddiy yigit Olovuddin muhabbatining ajib tarixidan soʻzlaydi.

Doʻstlik va chin muhabbat, sadoqat va jon fidoyilik haqiqiy moʻjizani yarata oladi va Sulaymonning sehrlil uzugi egasi yovuz afsungar Jaʼfardan ustun kelishga yordam beradi. Jaʼfarning koʻnglida birgina orzu yotibdi – u ham boʻlsa hukmdorlik. U oʻzining qora niyatlarini amalga oshirishi uchun sehrlil chiroqqa egalik qilishi va barcha jinlar shohi – qudratli Jingga xoʻjayin boʻlishi lozim. Ammo Jin «insoniy tuygʻular va inson hayoti ustidan hukmronlik»ni taqdim eta olmaydi.

Jin sadoqatli doʻst sifatida Olovuddinning oʻz baxtini topishi uchun yordam beradi va malikaning otasi – Bogʻdod sultoni «eng asosiysi – oltin va boyliklar emas, balki muhabbat!» ekanligiga amin boʻladi.

Yosh rejissor E.Aripova tomonidan sahnalashtirilgan spektakl oʻzining jozibadorligi, asosiy ifoda vositalarining uygʻunligi bilan diqqatga sazovor.

Spektaklda asosiy oʻringa ertakdagi sevgi, sadoqat, doʻstlik, yoshlik va oliyjanoblik kabi mavzular chiqarilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist K.Jabborova talqinidagi Budur obrazi diqqatga sazovor. Aktrisa orzularga boy, romantik qahramon obrazini yaratgan. Budur – K.Jabborova oʻz fikriga ega, ancha dadil va qatʼiyatli, qaysar, bir qadar erka, shu bilan birga ichki va tashqi jozibaga, malohatga, gʻuruga, aql-idrokka ega inson. Xullas, qoʻgʻirchoqdagi goʻzal surat aktrisa talqin etgan siyratga uygʻun. Shu uchun aktrisa ovoqidagi nozik ruhiy harakatlar qoʻgʻirchoq plastikasida ham yorqin aks etgan va uning jozibasini taʼminlagan. Oloviddin obrazi yosh aktyor O.Isoqov ijrosida toʻgʻri talqin etilgan. U oʻzi ishtirok etadigan sahnalarda zimmasidagi vazifalarni yaxshi his qiladi va bajaradi. Oloviddin – O.Isoqov sodda, samimiy inson. U mehnat bilan katta boʻlgan, qiyinchiliklarda choʻchimaydi. Yaxshilikka, yorugʻlikka, poklikka intiladi. Shu uchun oʻzini qurshab turganlarda ham halollik, poklikni koʻrishni istaydi. Qarindoshingman deb oʻzini tanitgan jodugar Jaʼfarda ham

avval yaxshi inonni ko'rishga intiladi. Lekin, sotqinlikka uchragan o'zini yo'qotmaydi, jazavaga tushmaydi. Sevgisiga erishish uchun tinmay harakat qiladi, kurashadi. Qalbi go'zal tuyg'ularga boy ushbu yigitcha, bu dunyoda hamma bir-biri bilan ma'nan teng deb hisoblaydi.

Chiroqning quli bo'lgan Jin, personaj sifatida ertakda ham belgili o'ringa ega. Ertakda yuz beruvchi fantastik mo'jizalar shu personajning sujet bo'yicha qiladigan harakatlari bog'liq. Spektaklda esa Jin obrazi rejissor (E.Oripova) va aktyor (F.Xo'jayev) tomonidan yana ham yiriklashtirib talqin etilgan. Jin – F.Xo'jayev qo'g'irchoq timsolida ham, tirik planlarda ham ko'rinishlarda sodda va yoqimtoy, quv ko'zlari kulib turadi, mehrlil va sirli porlaydi. Barchaga, ayniqsa, halol niyatli insonlarga faqat yaxshilik qilishga intiladi va bundan charchamaydi.

Ja'far – Sh.Jabborov talqinida o'ziga xos namunaviy xarakterga ega. Ko'rinishi oriq, yuzlari chakak-chakak bo'lib ketgan, rangi zahil. Ovozi burundan chiqqandek, bir qadar bo'g'iqroq jaranglaydi, harakatlari ehtiyotkorona, pisib burchak-burchaklardan chiqib keladi. Aktyor o'z harakatlarida rejissor, rassom, bastakor tanlagan yumor imkoniyatlari yo'l qo'yuvchi umumiy chegara doirasidan chiqmaydi.

Spektakldagi Bag'dod Sultoni obrazi rejissor va aktyor (O.Otaboyev) tomonidan oddiy xalq uchun foyda-zarari sezilarsiz o'z halovati va manfaatidan boshqani bilishni xohlamaydigan, burnidan uzoqroqni ko'rmaydigan, butun firku-zikri yaqinda 20 yoshga to'lgan qizi Budurni tezroq biror shahzodaga turmushga berishga intiluvchi, girdikapalak, o'zi bilan o'zi g'ing'illab gaplasib yuruvchi, bolatabiat chol qiyofasida tasvirlaydilar. Ularning talqini bo'yicha chol ancha laqma, did-farosat va aql-zakovatda ham shunga yarasha. Uning bu suhbatlari qizi bilan bahslarda ayniqsa yorqinroq namoyon bo'ladi.

Aktyorlar jamoasining badiiy yahlit spektakl uchun birdamlikdagi harakati, yagona maqsad yo'lidagi rejissor boshqaruvi tomoshadagi aktyorlik faoliyatining yorqin namunasini yuzaga keltirgan.

Aktyorlar asardagi murakkab personajlarni katta mahorat bilan ijro etadilar va shubhasiz, bu spektaklning tomoshaviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston xalqining sevimli shoirasi Zulfiya asari asosida D.Yuldasheva tomonidan sahnalashtirilgan "Semurg" (2011) spektaklida ham o'ziga xos dramaturgik talqin va aktyorlik namunalariga guvoh bo'lish mumkin.

Orzu insonni turli ko'chalarga yetaklaydi, nomardni mard, qo'rqoqni botir qiladi, sahroni vodiya aylantirib, yovuzlik hukmron yerga ezgulik nurini olib kiradi. O'zbek mumtoz dostoni asosidagi "Semurg" spektaklida ana shu orzu-umidlar mujassamlashgan.

Tinch-totuv yashayotgan xalq ustiga odamlar suyagidan tog' qurgan yovuz Yalmog'iz dev bostirib keladi. O'lkaning musaffo osmonini qora bulutlar bilan qoplaydi, daryolarni quritib, atrofni sahroga aylantiradi, insonlar boshiga kulfatlar yog'diradi. Albatta, inson orzusi – SEMURG! U jasur Bunyodni yovga qarshi kurashga chorlaydi, unga madad berib, mushkul vazifani uddalash uchun yo'l ko'rsatadi. Ammo Bunyodni oldinda katta sinovlar kutadi. Ana shu sinovlarni yengib o'tgach, u o'z orzusiga yetadi. O'lkasi yana yashnab, xalqi tinchlikka erishadi.

Maktab o'quvchilariga mo'ljallangan mo'ljallangan tomoshada Bunyod (O.Abduboyev) mard, harakatlari aniq, ovozi jarangdor va qat'iy qiyofada namoyon bo'sa, Semurg' (D.Shermatova) donishmand, harakatlari sokin, ovozlari mayin va yoqimli ko'rinishda paydo bo'ladi. Parizod (D.Xasanova) takabbur, tajang, mag'rur, harakatlari favqulodda tez yoki sokin, ovozlari ayyorona tarzda gavdalanadi. Vazir (O.Ibodov) esa harakatlari maromda, ovozlari beqaror, xarakteri kalovsiragan tarzda ifoda etiladi. Tomoshada aktyor O.Atabayev ikki rolda (ovozlari yo'g'on, harakatlari ayyorona va shiddatli, noshud va qahri qattiq) Dev hamda (ovozlari bo'sh va pastroq tempda, harakatlari sokin va ezmaroq) Xon qiyofalarida namoyon bo'ladi. Tomoshada yordamchi aktyorlar N.Saydaliyeva, U.Bo'riyev, A.Ahadov.

Aktyorlik namunalari dostonga xos tarixiy ruhda, ertakona va bolalar uchun qiziq qiyofada namoyon bo'ladilar. Aslida qo'g'irchoq teatridagi asosiy vazifa ham aktyorlikning tomoshaviy va yorqin personajlarin yaratishga asoslangan.

Shuningdek, teatrdan bir qancha boshqa inssenirovka asarlar sahnalashatirildiki, aktyorlar jamoasi bu tomoshalar orqali o'zlarining mahoratini charxlab bordilar. Tomoshabinlarga olam-olam zavq ulashdilar. Xususan, "Miyovlagan kim bo'ldi", "Qarsildoq" va boshqa spektakllar ham inssenirovka turdagi, aktyorlik namunalari rang-barang bo'lgan spektakllardir.

Inssenirovka asarlar orqali personajlar rang-barang bo'lsa-da, ularda alohida mualliflik xususiyati biroz pasayadi. Chunki, beixtiyor aktyor janoblari yoki rejissor qo'l urilgan asarning avvalgi nusxalaridan tasviriy ifodani yoki hech bo'lmaganda personajlar xarakterini taqlidan ko'chiradi. Bu esa o'z o'rnida aktyorlik yoki rejissorlik ishi namunasining yagona yoki ilk nusxasi hisoblanmay qoladi.

Afsuski, bugun inssenirovka asarlar teatrlarni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda, bu hol qaysidir ma'noda ijobiy, qaysidir ma'noda salbiy xususiyatdir. O'zining adabiy asosiga ega, dramaturgiyasiga ega katta tarixiy davrni bosib o'tgan qo'g'irchoq teatrlarining qimmatini, ahamiyatini saqlab qolish kerak. Zalda jajji tomoshabinga katta ta'sir ko'rsatuvchi, uning dunyoqarashini shakllantiruvchi, insoniylik tuyg'ularidan saboq beruvchi, bolalarning ijtimoiylashuvida muhim o'ringa ega qo'g'irchoq teatrining ahamiyatini yanada yuksaklarga ko'tarish kerak. Qo'yilayotgan asarlarni mazmunan boyitish va bugungi kun qahramoni qiyofasini yaratish vazifasiga faqat ertak yoki rivoyatlardan foydalanish orqali erishib bo'lmaydi. Bugungi kun nafasiga mos va xos bo'lgan zamonaviy asarlarni ham yaratish va ularni sahnalashtirishda teatr befarq bo'lmasligi kerak.

Barchamizga ma'lumki, har qaysi xonadonning o'ziga xos muhiti, ob-havosi bo'ladi. Bir oilaning qarashlari keyingisidan tubdan farq qiladi. Ulg'ayotgan bolaning xarakteridg , xatti-harakatlariga oilaning muhiti ta'sir etishi tabiiy. Maktab yoshidagi bola kunining uchdan bir qismini ta'lim muassasasida o'tkazadi. Atrofidagi

tengdoshlari bilan muloqot payti jamoaviylikka moslashadi, munosabatlar o`rnatishni o`rganadi. Bolaning ijtimoiylashuvi, bilim darajasini oshirishda o`quv muassasalari qanchalik muhim bo`lsa, insonga xos hislatlarning shakllanishida, ma`naviy qarashlarining oshishida, hayvonot va o`simliklar olamiga, yaqinlariga, do`stlariga mehri bo`lishida teatr ham shuncha ahamiyatlidir. Teatrlar mehr-oqibatni pand-nasihat, aql o`rgatish orqali emas, hayotiy misollar, harakatlar, voqealar va ran barang personajlar vositasida tushuntiradi. Bu vositalarning bolalarga samaraliroq ta`sir etishini esa hech kim inkor eta olmaydi.

Yangi va zamonaviy asarlar shubhasiz, aktyorlarni ham, rejissorlarni ham ijodiy qirralarini kashf etishga, tasavvur olamini boyitishga xizmat qiladi. Endilikda, mana shunday asarlar orqali aktyorlikning yangidan-yangi namunalarini yaratish zarurati asosiy o`rinlarda turibdi.

XULOSA

Bugun ko‘plab davlatlarda teatr san‘ati o‘z o‘rnini shou-biznesga bo‘shatib berayotgan bir paytda o‘zbek sahna san‘atiga talabu ehtiyoj kamaygani yo‘q. Negaki, sahna jonli jarayon. Unda iste‘dod va iste‘dodsizlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Teatr san‘ati tasavvur va tafakkur hosilasi, ma‘naviy yuksalish vositasidir.

Milliy teatrlarimiz ijodkorlari yangi spektakllari bilan Fransiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Misr kabi qator mamlakatlarda o‘tkazilgan xalqaro festivallarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritmoqda. Biroq o‘zbek teatrida hali kashf etilmagan ijodiy qo‘riqlar ko‘p. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatri xuddi bolalar fantaziyasi kabi cheksiz va ijodkor xayoloti kabi hududsizdir.

Zamon xususiyatlari bilan baravar tarzda harakatlanish ijodning asosiy mezonidir. Chunki ijod hayotni o‘rgatadi, agar ijod tomoshabindan ortda qolib ketsa, uni qanday o‘rgatuvchi deyish mumkin. Zotan, internet yo televideniye orqali dunyoni ko‘rayotgan tomoshabinning hayratini qozonish tobora qiyin bo‘lib borayotir. Didli odam spektakldan yangi fikr, yangi uslub qidiradi, sahnada botiniy kechinmalarini ko‘rishni istaydi.

Barcha davrda sahna hayot ko‘zgusi bo‘lishga intilib kelgan, – deydi O‘zbek milliy akademik drama teatri bosh rejissyori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Valijon Umarov²⁸. – Haqiqiy spektaklda hatto nur harakati ham ma‘no tashishi, tomoshabin esa har bir detaldan yangi tasavvur va fikr olishi, alalhusus didini yuksaltirishi lozim. Shunday bo‘lsa, asar ham, tomoshabin ham o‘z ma‘naviy missiyasini bajargan bo‘ladi.

Tomoshabin ziyrak shaxs. Ayniqsa bolalarni shunchaki aldab bo‘lmaydi va shunchaki ularga hamma narsani taqdim etib bo‘lmaydi. Ularning istaklari doim teatr jamoasini befarq qoldirmasligi kerak va teatr ularning istaklarini nazorat qilishi lozim. Shu asosda, tanlangan mavzuga yondashishda tomoshabinga ta‘sir etish

A²⁸ Elektron resurs: Umid Yoqubov. “Sahna zaldan baland.” www.uza.uz 2014.

tamoyilini hisobga olish lozim. Masalan, azaliy kurash omillari sanalmish ezgulik va yovuzlikning mohiyatini aniq tushuntirish asnosida shtamplarga berilmaslik kerak. Doim Shohlarni yovuz yoki laqma, Vazirlarni hiylakor yoki ayyor, Malikalarni tanti yoki berahm ifodalash shart emas. Ma'lum spektaklda hayvonlarni asrash haqida targ'ib etib, ma'lum asarda hayvonlarni jazolashni voqeaga aylantirishda ham bolalarni filtrsiz tasavvurini chalg'itmaslik kerak. Unutmaslik kerakki, "ommaviy madaniyat" tahdidi keskinlashayotgan hozirgi vaqtda sahna san'atimizning milliy asoslarga tayangan holda rivojlanishi bolalar ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Har bir odam, ayniqsa, bolalar spektakl yoki kino, multfilm yoxud kompyuter o'yini tomoshasidan avvalo o'z qahramonini qidiradi. Izlaganini uyidan topolmagan bolaning esa ko'chaga chiqib ketishi tayin.

Hayot sinovlarida toblangan, namunali, ongi va xulqi go'zal personajlar obrazi jonli bo'lsa, tomoshabin uning kechinmalarini o'zidan topa olsa, shu obraz xalq yoki qalbidan chuqur joy oladi. Hech qachon xato yo gunoh ish qilmaydigan, har tomonlama mukammal odamni bosh qahramon deb bilish dunyo san'atida ham, tomoshabin tasavvurida ham allaqachon eskirib ulgurdi. Real manzarani naturallashtirish yo bo'rttirish emas, balki badiiy tahlil va sintez orqali ifodalash – bu haqiqiy san'at.

Mana shu jihatda teatrlarda jamoaning har bir a'zosi bu dramaturgdan tortib toki aktyorlargacha o'ziga xos innavatsion fikrlash zarurati yuzaga kelmoqda. Bu zanjir ijodkorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri, turtkisi va hamkorligi orqali hosil qilinadi.

Mazkur tadqiqot ishida Respublika qo'g'irchoq teatri faoliyati misolida aktyor, rejissor va dramaturgning teatrdagi o'rni va vazifalari, repertuarni tashkil etish va shakllantirish masalalariga imkon qadar to'xtalib o'tildi.

Tadqiqot natijalariga muvofiq quyidagi ma'lumot va faktlar paydo bo'ldi.

Birinchidan, teatrning bugungi kundagi umumiy xususiyatlari aniqlandi. Unga ko'ra,

–teatrda spektakl, konsert, kulgu va yumor tomoshalari va teatrlashtirilgan dasturlar sahnalashtiriladi;

– teatr repertuari tomoshalari maktabgacha ta’lim muassasasi bolalaridan tortib, maktabning yuqori sinflaridagi o’quvchilargacha;

– repertuardagi spektakllarda rang-baranglik ko’zga tashlansa-da, milliy dramaturgiyaning o’rni past darajada, asosan, o’zbek va jahon adabiyoti namunalari hisobiga boyitilgan;

– tomoshalar o’zbek va rus tillarida tayyorlanadi;

– teatr butun viloyat miqyosida o’z targ’ibot va gastrol safarlari tizimini munosib yo’lga qo’ygan;

– teatrda ro’y berayotgan muhim yangiliklar, premyeralar, spektakl namoyishlari va teatr dasturlarini qamrab oluvchi maqola, axborot va efirlar televidenie, internet ijtimoiy tarmoqlari va davriy nashrlarda aks ettirilib kelinmoqda.

Ikkinchidan, teatrning bugungi kunida bir qator kamchiliklar ko’zga tashlanmoqda. Xo’sh, teatrning bugungi, ijodiy ahvoli qay darajada?!

Teatrdagi ijodiy jarayonlar tarixi, bugungi kunga qadar bu faoliyatning qaysidir ma’noda yutuqlarini tahlil qildik. Darhaqiqat, teatr jamoasi o’zining mehnatsevarligi, ijodga tashnaligi va intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Shu asosda, ko’plab spektakllar muvaffaqiyatga erishgan. Lekin asosiy ijodiy muammolarni uch ijodkor chizig’i bo’ylab tahlil etaylik.

Teatr o’z o’rnida keng asosdagi dramaturgiya va adabiyotga murojaat etishga harakat qiladi. Shunday bo’lsa-da, teatrning dramaturg kashf etish, uni tarbiyalash va shakllantirish borasida alohida xatti-harakatlari ko’zga tashlanmaydi. Zotan, tanlov ko’p joyda, raqobat va sifat shakllanadi.

Teatr ayni damda tajribali rejissor doirasini kegaytirishi kerak. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan rejissorlarning tajribasi va imkoniyatini inobatga olib, teatrda yosh rejissorlar avlodini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishi asosan aktyorlar faoliyatiga qaratilgani bois, teatrdagi bu ijodkorlar bilan bog'liq turli taassurotlar vujudga keldi. Ma'lum bo'ladiki, teatrdagi aktyorlarga xos bo'lgan yutuqlar ularning mehnatkashligida, qobiliyatida, tezkorligida, intiluvchanligida namoyon bo'ladi. Teatrdagi ayrim aktyorlarimiz ham o'zbek, ham rus tilida rol ijro eta oladi, ayrim aktyorlarimizning bir spektaklda bir necha obrazda gavdalanishi ham taqsinga loyiq. Qo'g'irchoq teatridagi yana bir muhim jihatga guvohi bo'ldikki, iste'dodsiz aktyor bu yerda uzoq ishlay olmaydi. Boshqa teatrlarda o'rtamiyona aktyor ham uzoq yillar davomida ikkinchi va uchinchi darajali rollar orqali sahnadan tushmasligi mumkin. Lekin qo'g'irchoq teatrida aktyor iste'dodli bo'lishi shart, har bir aktyor birinchi darajali rollar yarata olish imkoniyatiga ega bo'lmas ekan, sahna uni bag'rida olib qolmaydi.

Teatrning talabiga mos aktyorlarning salmog'i jihatidan esa quvonib bo'lmaydi. Aktyorlarning tanqisligi sabab quyidagi jihatlar yaqqol namoyon bo'lib turibdi:

- spektakllarning soni ko'p emas;
- tomoshalar haftada ikki marotabagina qo'yiladi;
- hamma spektakllarda aktyorlar tarkibi deyarli bir xil;
- o'ziga xos raqobat muhiti vujudga kelmagan;
- bir spektaklda bir aktyor bir nechta rollarni ijro etishga majbur.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatri aktyorligi sohasining nufuzi tushib ketayotgandek. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishni tamomlagach, teatrlarga bormaydi. Nafaqat ulardagi ko'nikmalar namunali emas, balki yosh "aktyorlar" bu sohaga qiziqmaydi. Ular ixtiyorsiz ravishda mana shu sohada tahsil oladi va kelajakda boshqa sohani tanlashga majbur bo'ladi. Bu borada ta'lim muassasasi mutaxassis tanlashda xatoliklarga yo'l qo'yayapti, bu xatoning oqibati balki bugun sezilmas, lekin yillar o'tib, uzoq vaqt davomida qo'g'irchoq teatri san'atiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Qo'g'irchoq teatrining har bir ijodkorini tarbiyalashda bugun muhim qadamlar tashlanishi joiz. O'zbek teatr san'atining ertangi taraqqiyoti – bugun har bir truppada

teng iste'dodga ega dramaturg, rejissyor, rassom va aktyorlarning ijodiy birlashuviga bog'liq. Afsuski, milliy va umuminsoniy qarashlarni sintezlay oladigan, xalq tili va dilini anglaydigan ijodkorlar orasida "Ustoz-shogird" an'alariga anchayin beparvoroq bo'lish hollari ham kuzatilmoqda. Oqibatda, ustoz ko'rmagan shogirdlar ko'paymoqda.

Mutaxassislar bilan to'la ta'minlangan ijodxonada albatta yuksak asarlar dunyoga keladi va ana shunda teatr o'zining vazifasini to'laligicha ado eta oladi. Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr – bu ibratxona" degan fikri bugun ham o'z qiymatini yo'qotmasligi uchun ham, teatr muhim strategik e'tiborga muhtoj.

Respublika qo'g'irchoq teatri va umuman barcha qo'g'irchoq teatrlari o'z qiymatini oshirish yo'lida yosh, iste'dodli va kelajak uchun xizmat qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun bel bog'lashi, bu borada jamiyatga, san'atga yordam bermog'i lozim. Shundagina, keying navbatdagi muammolar imkon qadar hal etiladi va teatr o'z tomoshabinlariga ilm-ma'rifat, ziyo va estetik zavq ulashishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Metadalogik manbalar, qonunlar, qarorlar, farmonlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2017.
2. «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun. – T.: 2016 yil, sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi 1998 yil 26 mart kungi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1995 yil 29 oktabrdagi “O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi “O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida” gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001 yil 21 sentabrdagi “Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to'g'risida” gi Farmoni.
7. Milliy teatrimiz – iftixorimiz. Birinchi Prezident Islom Karimovning 2001 yil 30 avgustda Toshkent shahrida O'zbek Milliy akademik drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi.
8. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 4-iyundagi .“O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat 2008.
Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat – T.: O'zbekiston, 1992.
10. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1993.
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston,

12. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.

13. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.

II. Kitoblar

1. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: O'qituvchi, 1981.
2. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – T.: Fan, 1993.
3. Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Qodirov M. S.Qodirova. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
5. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi. – T.: Kuro Print 2007.
6. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatri rejissorligi. – T.: 2014.
7. Yuldashev T.I., Ikromov H.I., Muxtarov I.A. va Muxtarova M.S. Teatr va yosh avlod. – T.: 2012.
8. Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. – T.: O'zDSMI 2015.
9. Tursunov T. Sahna va zamon. T.: Yangi asr avlodi. 2007.
10. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009.
11. Tursunov T. O'zbek teatr tarixi. – T.: ART PRESS, 2010.
12. Istiqlol va milliy teatr. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
13. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2012.
14. Bayandiyev TOSHKENT Ikromov H., Ahmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. – T.: 2009.
15. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

16. Aliyeva N. San'at – mening hayotim – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
17. Дидро Д. Парадокс об актёре. – М., Л.: Искусство, 1938.
18. Rahmonov M.R. O'zbek teatri tarixi. T.: Fan, 1968.
19. Stanislavskiy K.S. San'atdagi hayotim – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
20. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
21. Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. T.: Fan, 1980.
22. Islomov T. Tarix va sahna – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
23. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati – T.: Ma'naviyat, 2000.
24. Rizayev Sh. Iztirob san'ati – T.: Yangi asr avlodi, 2013.
25. Qodirov M. Sahnemiz lochinlari –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986.
26. Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. T.: Musiqa, 2006.

III. Gazeta, jurnal, ilmiy-ommabop to'plamlarda e'lon qilingan maqolalar:

1. To'laxo'jayeva M. Teatr haqida g'amxo'rlik. // "Teatr", 2001 yil, 6-son.
2. To'laxo'jayeva M. XX asr teatr islohotlari. // "Jahon adabiyoti", 2014yil,1-son.
3. To'rabekova R. Ma'naviy qadriyatlar va teatr. // "Teatr", 2007 yil, 5-son.
4. Rizayev O. XXI asr o'zbek teatri: muammolar va rejalar. // "Teatr", 2002 yil, 6-son.
5. Rizayev O. Maqsad barkamol sahna asari yaratish. // "Teatr", 2003 yil, 1-2-sonlar.
6. Rizayev O. Teatr va adabiy meros. // "Teatr", 2007 yil, 6-son.
7. Rizayev O. Milliy nasrimizning sahna talqinlari. // "Teatr", 2012 yil, 3-son.

8. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishida san'at va madaniyatning roli – Respublika ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari. – T: “Navro‘z”, 2014.
9. Teatr va kino san'ati ta'limi: muammo va yechimlar – Respublika ilmiy-amaliy ijodiy konferensiya Materiallari to'plami. – 20 noyabr 2015, T: “Lesson Press”
10. Elektron resurs: Umid Yoqubov. Sahna zaldan baland.// www.uza.uz 2014.

IV. Dissertatsiya va malakaviy ishlar

1. Ernafasova F. Xorazm viloyat davlat qo'g'irchoq teatri. – T.: 2010.
2. Abduvohidova Z. Respublika yosh tomoshabinlar teatrining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o'rni. – T.: 2016.
3. Zamatdinov A. Qoraqalpoq teatrlarida milliy kolorit ifodasining tarixiy va zamonaviy aspektlari. – T.: 2017.

V. Suhbatlar

1. Sh.Abdullayev bilan suhbat. 2 aprel 2018 yil.
2. A.Mirzag'iyosov bilan suhbat. 2 aprel 2018 yil.
3. F.Xo'jayev bilan suhbat. 4 aprel 2018 yil.
4. D.Yuldasheva bilan suhbat. 2 aprel 2018 yil.
5. M.Ashurova bilan suhbat. 16 aprel 2018 yil.
6. Sh.Ishmuhammedova bilan suhbat. 2 aprel 2018 yil.
7. D.Shermatova bilan suhbat. 2 aprel 2018 yil.

VI. Elektron resurslar

1. www.uza.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.ziyo.com
4. www.daryo.uz
5. www.teatr.uz
6. www.dsmi.uz

ILOVA

RESPUBLIKA QO'G'IRCHOQ TEATRI





“BAHORROY VA NAVRO’Z” SPEKTAKLI



“QULOQSIZ ULOQCHA” SPEKTAKLI